



FAN VA JAMIYAT ILIM HAM JAMIYET



2025/2-1



www.journal.ndpi.uz

ISSN 2010-720X

2004-jıldan mart ayınan baslap shıga basıldı

**ÓZBEKSTAN RESPUBLIKASI JOQARÍ
BILIMLENDIRIW, ILIM HÁM INNOVACIYALAR
MINISTRIGI**



**ÁJINIYAZ ATÍNDAĞÍ NÓKIS MÁMLEKETLIK
PEDAGOGIKALIQ INSTITUTÍ**

ILIM hám JÁMIYET

Ilmiy-metodikalıq jurnal

Seriya: Tábiyyiy hám texnikalıq ilimler. Jámiyetlik hám ekonomikalıq ilimler.

Filologiya ilimleri

**Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat
pedagogika instituti**

FAN va JAMIYAT

Ilmiy-uslubiy jurnal

Seriya: Tabiiy va texnika fanları. İjtimoiy va iqtisodiy fanlar.

Filologiya fanları

**Нукусский государственный педагогический
институт имени Ажинияза**

НАУКА и ОБЩЕСТВО

Научно-методический журнал

Серия: Естественно-технические науки. Социальные и экономические науки.

Филологические науки

**Nukus State Pedagogical Institute
named after Ajiniyaz**

SCIENCE and SOCIETY

Scientific-methodical journal

Series: Natural-technical sciences. Social and economic sciences.

Philological sciences

№2/1

**Shólkemlestiriwshi: Ájiniyaz atındaǵı Nókis
mámlaketlik pedagogikalıq instituti hám jurnal redakciyası jámááti
Shólkemlestiriw komiteti başlıǵı: KADIROV K. – NMPI rektori
Bas redaktor: PAZÍLOV A.**

REDKOLLEGIYA AĞZALARÍ

b.i.d. (DSc), prof. Ajiev A. (Nókis);
 s.i.d. Atamuratov M.U. (Nókis);
 t.i.d. (DSc), doc. Bazarbaev R. (Nókis);
 filos.i.d., prof. Berdimuratova A. (Nókis);
 f.i.d., prof. Genjemuratov B. (Nókis);
 tex.i.d., doc. Dawletmuratov B. (Nókis);
 e.i.f.d. (PhD), doc. Eshimbetov U. (Nókis);
 f-m.i.d., prof. Ismaylov Q. (Nókis);
 a/x.i.d., prof. Jumamuratov A. (Nókis);
 f-m.i.d., prof. Kamalov A. (Nókis);
 f-m.i.d., prof. Karajanov S. (Norvegiya);
 f.i.d. (DSc), doc. Kdirbaeva G. (Nókis);
 tex.i.d., doc. Qayipbergenov A. (Nókis);
 f-m.i.d., prof. Qudaybergenov K. (Nókis);
 b.i.d., prof. Markov M.B. (Rossiya)
 f.i.d. (DSc), doc. Matyakupov S. (Nókis);
 f.i.d., prof. Matchanov S. (Tashkent);
 x.i.d., prof. Mustafayev I.I. (Azerbayjan);

x.i.d., doc. Nawbeyev T.X. (Nókis);
 f.i.d., prof. Orazimbetov Q.K. (Nókis);
 f-m.i.d. (DSc), prof. Otemuratov B. (Nókis);
 f.i.d. (DSc), doc. Palmbetov K. (Nókis);
 f-m.i.d. (DSc), doc. Prenov B. (Nókis);
 e.i.d., prof. RuzmetovB. (Urgench);
 f.i.d. (DSc), prof. Salqinbay A. (Alma-ata);
 b.i.d. (DSc), doc. Saparov A. (Nókis);
 t.i.d., doc. Saribaev M. (Nókis);
 e.i.d., prof. SauxanovJ.K. (Nókis);
 tex.i.d. (DSc), prof. Seytnazarov Q. (Nókis);
 x.i.d., doc. Seytnazarova O.M. (Nókis);
 x.i.d., prof. Toremuratov Sh.N. (Nókis);
 g.i.d., prof. Turdimambetov I. (Nókis);
 f-m.i.k., doc. Tanirbergenov S. (Nókis);
 e.i.d., prof. UbaydullevK. (Nókis);
 f-m.i.d., prof. Yavidov B. (Nókis);
 f.i.d. (DSc), doc. Yusupova B. (Nókis).

**Q.Biysenbaev–juwaphı xatker
Z.Xodjekeeva – korrektor
N.Allamuratova – operator**

Juwaphı redaktorlar:

f.i.d.(DSc), doc. S.Matyakupov – ózbek tili boyınsha
 f.i.d. (DSc), doc. G.Kdirbaeva – rus hám inglís tilleri boyınsha
 f.i.d. (DSc), doc. B.Yusupova – qaraqalpaq tili boyınsha

Jurnal «Qaraqalpaqstan muǵallimi» atamasında shıǵarılıa baslaǵan. 2004-jılda «Ilim hám jámiyet» atamasına ózgertiliip, 01-022-sanlı gúwaliq penen Qaraqalpaqstan Respublikası Baspasóz hám xabar agentligi tárepinen dizimge alıńǵan.

2020-juli 7-avgustta Özbekstan Respublikası Prezidenti Administracyası janındaǵı xabar hám ógalaba kommunikaciyalar agentligi tárepinen qayta dizimge alınıp, 1098-sanh gúwaliq berilgen.

«Ilim hám jámiyet» jurnalı Özbekstan Respublikası Ministrler Kabineti janındaǵı Joqarı Attestaciya Komissiyası kollegiyasınıń qararı menen tómende kórsetilgen ilimler boyınsha ilim doktorı dárejesin alıw ushin maqalalar járiyalanıwi tiyis bolǵan ilimiň basılımlar dizimine kírgizilgen:

- 01.00.00 - fizika-matematika ilimleri;
- 03.00.00 - biologiya ilimleri;
- 05.00.00 - texnika ilimleri;
- 07.00.00 - tariyx ilimleri;
- 10.00.00 - filologiya ilimleri;
- 11.00.00 - geografiya ilimleri;
- 13.00.00 - pedagogika ilimleri;
- 19.00.00 - psixologiya ilimleri.

TÁBIYIY HÁM TEXNIKALÍQ ILIMLER

Fizika. Matematika. Texnika. Informatika.

QARAQALPAQ TILINIÝ LINGVISTIKALÍQ KORPUS PLATFORMASÍN JARATÍW

(Tóle bergen Qayipbergenovtiý shıgarmaları misalında)

G.R.Abdalieva – filologiya ilimleriniý kandidati, docent

N.U.Uteuliev – fizika-matematika ilimleri doktori, professor

B.K.Kalmuratov – aǵa oqıtawshi

A.S.Utesinova – magistrant

Tashkent informacyalyq texnologiya universiteti Nókis filiali

Tayanch so'zlar: qoraqalpoq tili, lingvistik korpus, ma'naviy meros, morfologik tahlil, sintaktik tahlil, semantik tahlil, lemmatizatsiya, tokenizatsiya, sun'iy intellekt, frazeologizmlar.

Ключевые слова: каракалпакский язык, лингвистический корпус, духовное наследие, морфологический анализ, синтаксический анализ, семантический анализ, лемматизация, токенизация, искусственный интеллект, фразеологизмы.

Key words: karakalpak language, linguistic corpus, cultural heritage, morphological analysis, syntactic analysis, semantic analysis, lemmatization, tokenization, artificial intelligence, phraseology.

Házigri dáwirde sanlı texnologiyalardıň rawajlanıwı nátiyjesinde jámiyetimizdiń barlıq tarawları sanlastırılmaqta. Usınıň nátiyjesinde zamanagóy joqarı texnologiyalardan paydalaniw mümkinshiliği arta beredi. Ásirese, dýnya júzinde aldinnan tayarlangan jasalma intellekt til modelleriniň nátiyjesinde úlken jetiskenlikler ámelge asırılmaka. Usılardıń qatarında qaraqalpaq til modellerin jetilistiriw, lingvistikaliq hám de parallel korpus jaratiw máseleleri eń aktual zárúrlik bolıp tabıldı.

Lingvistikaliq korpus bul – belgili bir tildiń yamasa dialektiň úlken kólemdegi tekstler jinyaǵı. Ol til izertlewshileri, oqıtawshilar hám til texnologiyaları menen shugullaniwshilar ushın áhmiyetli qural bolıp tabıldı. Korpus arqaly tildiń haqiqiy qollanlıwin, sóz jiyiligin, grammaticalıq qurılışların hám basqa da lingvistikaliq aspektlerin analizlewge boladı.

Lingvistikaliq korpustuň tiykargı ózgeshelikleri tómendegilerdi óz ishine aladı. **Reprezentativlik** ózgeshelikte korpus tildiń hár qıylı stillerin, janrların hám dáwirlerin qamrıtwi kerek. Kólemi jaǵınan, ádette, millionlaǵan sózlerden ibarat boladı. Mashina oqıy alatuńın formatta kompyuter analizi ushın qolaylı bolwı kerek. **Annotaciyalıq** ózgeshelikte kóbinese, morfologiyaliq, sintaksislik hám semantikaliq belgiler menen belgilenedi [1].

Tóle bergen Qayipbergenovtiý shıgarmaları tiykarında lingvistikaliq korpus dúziw, bul – qaraqalpaq tilin izertlew ushın áhmiyetli basqısh bolıp tabıldı. Bul jazıwshınıň shıgarmaları qaraqalpaq ádebiy tiliniň bay úlgisi bolıp esaplanadi.

Korpus dúziwdiń tiykargı basqıshları:

1. Tekstlerdi jiynaw hám sanlastırıw;
2. Tekstlerdi normalizaciyalaw (orfografiyanı birlestiriw, punktuaciyanı tártipke salıw);
3. Tokenizaciya (tekstti sózlerge hám gáplerge ajıratiw);
4. Morfologiyaliq hám sintaksislik analiz;
5. Metamaǵlıwmatlardı qosıw (shıgarmaniň atı, jazılǵan jılı hám t.b.) [2].

Tóle bergen Qayipbergenovtiý shıgarmaları boyınsha korpus platformasın islew - bul júdá áhmiyetli joybar. Jumısti baslaw ushın tómendegilerdi ámelge asıramız:

Materiallardı jiynaw, yaǵníy T.Qayipbergenovtiý barlıq shıgarmaların jiynaw hám olardı sanlı formatqa ótkeriw.

Tekstlerdi tayarlaw arqalı shıgarmalardı bóleklerge bólw (misali, betler, bólimler yamasa abzaclar boyinsha). Hár bir bólekke metamaǵlıwmatlardı qosıw (shıgarmaniň atı, jazılǵan jılı hám t.b.).

Lingvistikaliq analizdi ámelge asırıw. Yaǵníy tekstlerdi morfologiyaliq hám sintaksislik analizden ótkeriw. Sózlerdi **lemmatizaciyalaw** (sózlerdiń tiykargı formasın aniqlaw).

Barlıq maǵlıwmatlar sanlastırılgannan keyin korpus bazasın jaratiw ámelge asıraladı. Bunda, analizlengen tekstlerdi saqlaw ushın maǵlıwmatlar bazasın tańlaw hám dúziw ámelge asırladı. Tekstlerdi hám olarǵa baylanışlı **metamaǵlıwmatlardı bazaǵa kírgiziw**. Al, keyingi basqıshta **izlew sistemasiň islep shıǵıw** ámelge asırladı. Yaǵníy korputsa izlewdi ámelge asırıw ushın algoritmler islep shıǵıw hám sózler, sóz dizbekleri hám grammaticalıq formalar boyınsha izlew mümkinshiliklerin jaratiw [3].

Soń **platforma interfeysi** jaratıldı. Jaziwshınıň shıgarmalarını tekstleri qaraqalpaq tiliniň leksikası, morfologiyası, sintaksısı hám stilistikası jaǵınan tómendegi obyektlər boyınsha analizlenedi hám kategoriyalارǵa bólinedi: **Naql-maqallar, Frazeologizmeler, Metaforalar, Ráwiyatlar, Teńewler, Aforizmeler, Epitetler** hám t.b.

Tóle bergen Qayipbergenovtiý shıgarmalarındaǵı til hám stillik qurallardı usılay kategoriyalarǵa bólw korpustuň ilimiý hám ámeliy qunın asıradı. Mine, usı kategoriyalar boyınsha bir neshe itimal jobalar:

Naql-Maqallar. Olardı tematikalıq toparlarga bólw (misali, turmis haqqında, doslıq haqqında, t.b.). Hár bir naql-maqaldiń mánisin túsindiriw. Eger mümkin bolsa, olardıń dáreklerin kórsetiw (xalıq awizeki dóretpesi me yamasa avtordiń ózi dóretken be).

Frazeologizmeler. Olardı mánisi boyınsha toparlarga bólw. Yaǵníy hár bir frazeologizmni sózbe-sóz hám awıspali mánisin túsindiriw. Olardıń qollanılıw jaǵdaylarına misallar keltiriew.

Metaforalar. Metaforalardı tematikalıq toparlarga bólw. Bunda olardıń mánisin hám estetikalıq tásirin túsindiriw hám metaforalardıń shıgarmaniň ulıwma ideyasına qosqan úlesin analizlew.

Ráwiyatlar. Ráwiyatlardıń dáreklerin izertlew (eger mümkin bolsa) hám olardıń shıgarmadaǵı funkciyasın túsindiriw. Ráwiyatlardıń mazmunın hám xızmetin analizlew.

Tenewler. Teñewlerdi qollanılğan obyekteri boyinsha toparlarga bóliw. Yañni, olardıń obrazlıhgın hám tásirsheńligin túsindiriw, sonday-aq, milliy-mádeniy ózgeşeliklerin kórsetiw.

Aforizmler. Aforizmlerdi tematikalıq toparlarga bóliw, olardıń filosofiyalıq hám sociallıq mánisin túsindiriw hám avtordıń dúnyaǵa kózqarasın qalay sáwlelendiretuğının kórsetiw.

Epitetler. Epitetlerdi semantikalıq toparlarga bóliw. Bunda olardıń kórkemlik funkciyasın túsindiriw hám avtordıń stiline tiygizgen tásirin analizlew bolıp tabıldi.

Qaraqalpaq ádebiyatınıń kórneceli wákili Tólepbergen Qayipbergenovtiń shıgarmaları korpusı, bul – qaraqalpaq tili hám ádebiyatın izertlewde úlken áhmiyetke iye bolǵan jańa hám innovaciyalıq resurs. Bul korpus jaziwshınıń barlıq shıgarmaların, sonıń ishinde, romanları, gúrrińleri, publicistikaliq maqalaların óz ishine aladi.

Korpustıń tiykargı maqseti – T.Qayipbergenovtiń shıgarmaların sanlı formatta saqlaw, olardi izertlewshiler, studentler hám oqıwshilar ushin qolaylı etip usınıw. Bul arqalı qaraqalpaq tili hám ádebiyatın úyreniw procesin jedellestiriw hám jeńillestiriw názerde tutılǵan.

Korpustıń tiykargı ózgeshelikleri minalardan ibarat: Tolıq qamtıw, yañni korpus T.Qayipbergenovtiń barlıq shıgarmaların óz ishine aladi, bul onıń dóretiwhiligin tolıq kólemde úyreniwge mümkinshilik beredi. Izlew funkciyası bolsa, korpustaǵı sózler, sóz dizbekleri yamasa grammaticalıq konstrukciyalardı izlew mümkinshiliǵı bar, bul izertlewshilerge kerekli maǵlıwmatlardı tez tabıwǵa járdem beredi. Al, **lingvistikahq analiz** bóliminde korpustıń morfologiyalıq, sintaksislik hám leksikalıq analiz quralların usınadı, bul T.Qayipbergenov shıgarmaları tiliniń ózgesheliklerin tereń úyreniwge imkaniyat beredi. **Statistikahq maǵlıwmatlar** bólimi arqalı, korpustaǵı sózlerdiń kóp ushırasatuǵınlıǵı, kollokaciylar hám basqa da statistikalıq maǵlıwmatlardı usınadı, bul jaziwshınıń til qollanıwın analizlewge járdem beredi. Al, **interaktivlik vizualizaciya** arqalı korpus maǵlıwmatların grafikler, diagrammalar hám basqa da vizual qurallar járdeminde kórsetedi, bul maǵlıwmatlardı ańsat túsiniwge imkaniyat beredi.

Korpustıń jaratiw arqalı kóplegen nátiyjelerge erisemiz hám onıń qollanılıwi oǵada áhmiyetli bolıp tabıldi. Atap

Ádebiyatlar

1. McEnery T., & Hardie A. 2011. Corpus linguistics: Method, theory and practice. Cambridge University Press.
2. Sinclair J. 2004. Trust the text: Language, corpus and discourse. Routledge.
3. Dash N.S. 2008. Corpus Linguistics: An Introduction. Pearson Education India.

REZYUME. Mazkur maqola qoraqalpoq tili asosida lingvistik korpus yaratish jarayonini yoritishga qaratilgan. Unda T.Qayipbergenov asarlari misolida tilni tizimli tahlil qilish usullari va axborot tizimlari imkoniyatlari ko'rsatib o'tilgan. Tabiiy tilni qayta ishlash texnologiyalari va lingvistik korpusning ahamiyati tilshunoslik sohasida innovatsion yondashuv sifatida tahlil qilingan. Maqola korpus yaratish bosqichlarini, texnik jihatlarini va uning ilmiy-amaliy ahamiyatini bayon etadi.

РЕЗЮМЕ. В статье рассматривается процесс создания лингвистического корпуса на основе каракалпакского языка. На примере произведений Т.Кайыпбергенова представлены методы системного анализа языка и возможности информационных систем. Технология обработки естественного языка и значение лингвистического корпуса анализируются как инновационный подход в области лингвистики. Также описаны этапы создания корпуса, его технические аспекты и научно-практическое значение.

SUMMARY. This article focuses on the process of creating a linguistic corpus based on the Karakalpak language. Using T.Kaipbergenov's works as an example, it highlights methods for systematic language analysis and the potential of information systems. The importance of natural language processing technologies and linguistic corpora is analyzed as an innovative approach in linguistics. The article outlines the stages of corpus creation, its technical aspects, and its scientific and practical significance.

ótsek, ilimiý izertlewler ushin qollanǵanda korpus ádebiyattaniwshilar, lingvistler hám basqa da izertlewshiler ushin bahali resurs bolıp esaplanadi. Ol T.Qayipbergenovtiń shıgarmaların hár tárepleme analizlewge, onıń stiline, til ózgesheliklerin hám tematikalıq baǵdarların tereń úyreniwge mümkinshilik beredi. Al, bilimlendiriliw maqsetleri ushin paydalanganda bolsa, korpus mektep hám joqarı oqıw orınlarında qaraqalpaq tili hám ádebiyatın oqıtwda qollanılıwi mümkin. Ol studentlerge T.Qayipbergenovtiń shıgarmaları menen jaqınnan tanısıwǵa hám olardı hár tárepleme úyreniwge járdem beredi. Til úyreniw ushin bolsa, álbette, korpus qaraqalpaq tilin úyreniwshilerge paydalı resurs bolıp tabıldı. Ol tildiń haqiqiyqıy qollanılıwın kórsetedi hám sózlik qorın bayitiwǵa járdem beredi. Usı arqalı mádeniy miyrasti saqlap, korpus T.Qayipbergenovtiń shıgarmaların sanlı formatta ámelge asırıwǵa hám olardı keleshek áwladlarǵa jetkeriwge mümkinshilik beredi. Eń baslısı, qaraqalpaq tilin jáne de rawajlandırıw. Korpus qaraqalpaq tiliniń kompyuter lingvistikası tarawında qollanılıwın keńeytedi, bul tildiń rawajlanıwına hám saqlanıwına úlken úles qosadi.

Juwmaqlap aytqanda, T.Qayipbergenovtiń shıgarmalar korpusı, bul – qaraqalpaq tili hám ádebiyatı boyinsha izertlewler ushin áhmiyetli resurs. Ol jaziwshınıń miyrasın saqlawǵa, úyreniwge hám keń jámiyetshilikke jetkeriwge úlken úles qosadi. Korpustıń rawajlanıwı hám keńeyiwi qaraqalpaq tilin hám ádebiyatın izertlewdiń jańa mümkinshiliklerin ashadı, sonday-aq, ulıwma qaraqalpaq mádeniyati hám tariyxın úyreniwge de járdem beredi. Korpus tek ǵana ilimpazlar ushin emes, al ulıwma qaraqalpaq tiliniń rawajlanıwına, onıń sanlı texnologiyalar dawirinde saqlanıwına hám keń qollanılıwına tiykar bolıwı mümkin. Sonlıqtan, onı rawajlandırıw hám jetlistiriw – bul tek ǵana ilimiý maqset emes, al ulıwma qaraqalpaq mádeniyatin saqlaw hám rawajlandırıw boyinsha áhmiyetli waziypa bolıp esaplanadi.

**Zn VA S KIRISHMA ATOMLARINI KREMNIYGA LEGIRLASHNING
DIFFUZIYA USULINING MATEMATIK MODELI**

M.K.Haqqulov – katta o'qituvchi

B.O.Isakov – fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori

F.Q.Shakarov – katta o'qituvchi

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti

S.Y.Mahmudov – katta o'qituvchi

F.O.Sodiqova – magistrant

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti Qo'qon filiali

Tayanch so'zlar: kremniy, oltingugurt, rux, diffuziya, model.

Ключевые слова: кремний, сера, цинк, диффузия, модель.

Key words: silicon, sulfur, zinc, diffusion, model.

1. Kirish. Taqiqlangan soha energiyasi yuqori bo'lgan birikmali yarimo'tkazgichlar optik tadqiqtolar va ilovalarni ishlab chiqish uchun yangi imkoniyatlardan yaratdi. Yorug'lik chiqaruvchi diodlar, tekis panelli displeylar, chiziqli bo'limgan optik qurilmalar, sensorlar, lazerlar va fotokataliz kabi optoelektronik qurilmalarda qo'llanilishi tufayli so'nggi yillarda ZnS birikmali yarimo'tkazgichga bo'lgan qiziqish ortib bormoqda [1:5]. Taqiqlangan soha energiyasining kattaligi sababli ushbu materiallarni LEDlarni ishlab chiqarish uchun yaxshi nomzod bo'ladi [2:1139]. Lekin ushbu ZnS binar birikmali yarimo'tkazgich monokristalini olish, ham texnologik jihatdan ham xom ashyo jihatdan qimmatga tushadi. Mualliflar [3:636] Si sirtida GaSb binar birikmalari orolchalarini diffuziya usulida shakllantirib, ushbu materialni taqiqlangan soha energiyasi hamda panjara parametrlarini ham tajriba yo'li orqali ham nazariy jihatdan ko'rsatib berishgan. Shu sababli, olinish texnologiyasi yaxshi o'zlashtirilgan, yer qobig'ida boy zaxiraga ega bo'lgan Si monokristallida, ZnS binar birikmalarini shakllantirib, yangi turdag'i materiallarni diffuziya usuli yordamida olish bilan hal qilish mumkin. Shuning uchun, Zn va S kirishma atomlarini kremniyga diffuziya qilish usulida legirlashning matematik modelini ishlab chiqish ilmiy ahamiyatga ega.

2. Nazariy qism. Adabiyotlardan ma'lumki, diffuziya jarayoni yarimo'tkazgich materiallarda kiritilinadigan kirishma atomlari manbaining turiga bog'liq ravishda cheksiz va cheklangan manbadan amalga oshiriladi [4:2]. Cheksiz manbadan diffuziyada diffuzant manbasi uzlusiz bo'lib, kontsentratsiyasi vaqt davomida o'zgarmaydi va (1) tenglama yordamida ifodalanadi.

$$N(x, t) = C_s \cdot \operatorname{erfc} \left(\frac{x}{2\sqrt{Dt}} \right) \quad (1)$$

bu yerda: C - kontsentratsiya, x - masofa, erfc - xatolik funksiyasi, t - vaqt. Cheklangan manbadan diffuziyada diffuzant manbasi chegaralangan bo'lib, kontsentratsiyasi vaqt davomida o'zgaradi va (2) tenglama yordamida ifodalanadi.

$$N(x, t) = \frac{C_s}{\sqrt{\pi \cdot D \cdot t}} \cdot \exp \left(-\frac{x^2}{4 \cdot D \cdot t} \right) \quad (2)$$

Mualliflar [5:305] tomonidan rux va oltingugurt kirishma atomlarini kremniydag'i maksimal eruvchanligi tajribalar asosida aniqlangan. Bunda, rux va oltingugurt kirishma atomlarining kremniydag'i eruvchanligining eng yuqori qiymati mos ravishda $N_{Zn}=6 \cdot 10^{16}$ va $N_{S}=3 \cdot 57 \cdot 10^{16}$ ga teng.

2.1. Diffuziya koeffitsienti. Diffuziya koeffitsienti, bir moddaning boshqa moddaga harakatlanish tezligini ifodalovchi miqdordir. Bu koeffitsient, matematik modellar

yordamida va matematik formulalar orqali ifodalanagan bo'lib, asosan kremniy kristall panjarasida kirishma atomlarning taqsimoti Fik qonunlaridan kelib chiqib aniqlanadi. Agar, $N(x, t)$ – kirishma atomlarining zichligi, D – ularni diffuziya koeffitsienti bo'lsa, diffuziya jarayonida ishtirot etayotgan (bir yo'nalishda) atomlarning oqimi quyidagi teng bo'ladi:

$$I = -D \frac{\partial N}{\partial x} \quad (3)$$

bunda: D – diffuziya koeffitsienti, ∂N – kirishma atomlarning kremniyga kirishidagi kontsentratsiya miqdori, ∂x – kirishma atomlarning kremniy materialiga kirish chuqurligi. Diffuziya koeffitsienti ($D[\text{sm}^2/\text{s}]$) Arenius diffuziya tenglamasi asosida hisoblanadi:

$$D = D_0 \exp \left(\frac{-E_f}{kT} \right) \quad (4)$$

bunda: D_0 – harorat va E_f – faollanish energiyasi (eV) ga bog'liq bo'limgan eksponensial kattalik (diffuziya doimiysi), k – Boltzman doimiysi, T – mutlaq harorat. Diffuziya doimiysi D_0 va faollanish energiyasi E_f diffuziyadanidan yarimo'tkazgich element va kirishma atomlarining fizik xususiyatlariga qarab turli elementlar uchun farq qilishi mumkin. Cheksiz o'lchamli plastinkadagi diffuziya Fikning ikkinchi qonuniga asosan "erf funksiya" yordamida aniqlanadi:

$$C(x, t) = C_0 \operatorname{erf} \left(\frac{x}{2\sqrt{Dt}} \right) \quad (5)$$

Bu yerda: $C(x, t)$ – joylashuv va vaqtga bog'liq konsentratsiya (mol/sm^3), C_0 – boshlang'ich konsentratsiya, $\operatorname{erf}(x)$ – xatolik funksiyasi, x – masofa (sm), t – vaqt (s).

1-jadval. Rux va oltingugurt elementlarining kremniydagidiffuziya parametrlari


Element	Diffuziya koeffitsienti, D_0 (sm^2/s)	Faollashuv energiyasi, E_f (eV)	Mexanizm
S	0.92	2.2	Tugunlararo
Zn	0.1	1.4	Tugunlararo

2.2. Kirishmalarining eruvchanligi. Kirishmalarining eruvchanligi atamasiga turli materiallarda, ayniqa qattiq jism va yarimo'tkazgichlarda kirishma atomlar diffuziyadanidan materialda qanday tarqalishi va erishi jarayonini ifodalarydi. Bu jarayonlar materialshunoslikda, qattiq jismlarning xossalari va elektron qurilmalarining ishlashini tushunishda muhim ahamiyatga ega. Yarimo'tkazgich materiallarda eruvchanlik quyidagi omillarga bog'liq: haroratga; materialning turiga; atom radiusiga; kristall panjara tuzilishiga. Kirishmalar materialda yuqori harorat ta'sirida erishi mumkin. Yuqori


haroratda atomlar ko'proq kinetik energiyaga ega bo'ladi va kristall panjarada ko'proq harakatlanadi. Har xil materiallar har xil eruvchanlik xususiyatlari ega.

3. MathCad dasturida Zn va S kirishma atomlarini kremniyga legirlashning diffuziya usulini matematik modeli.


Kremniyda ZnS binar nanoklasterlarini hosil qilish uchun rux (Zn) va oltingugurt (S) kirishma atomlarining eruvchanlik qiymatlari maksimal darajada bir-biriga yaqin bo'lishi talab yetiladi. Ushbu shartni ta'minlash maqsadida *MathCad* dasturida ishlab chiqilgan matematik model yordamida oltingugurt va rux kirishma atomlari kremniyga alohida, ketma-ket va parallel tarzda diffuziya taqsimoti hisoblandi. Ma'lumkin Zn va S kirishma atomlarini kremniyga ketma-ket hamda bir vaqtida (parallel) legirlash mumkin. Shu sababdan diffuziya jarayonini modellashda uch xil mexanizmni tanlab olindi: 1- kremniyga avval Zn kirishma atomlarini $T=1180^{\circ}\text{C}$ haroratda, so'ngra S kirishma atomlarini $T=1250^{\circ}\text{C}$ haroratda diffuziya qilish mexanizmi (ushbu haroratlarda Zn va S kirishma atomlarining kremniyda eruvchanliklari bir-biriga juda yaqin); 2- kremniyga avval S kirishma atomlarini $T=1250^{\circ}\text{C}$ haroratda, so'ngra Zn kirishma atomlarini $T=1180^{\circ}\text{C}$ haroratda diffuzi qilish mexanizmi; 3- kremniyga S va Zn kirishma atomlarini bir vaqtida (parallel) $T=1250^{\circ}\text{C}$ haroratda diffuzi qilish mexanizmi.




a)



b)



c)




d)


1-rasm. Kremniy monokristalliga dastlab rux ($T=1180^{\circ}\text{C}$; $t=30\text{ min}$, 1 soat; 2 soat, 3 soat) so'ngra oltin gugurt ($T=1250^{\circ}\text{C}$; $t=20\text{ soat}$) kirishma atomlari diffuziyasining chuqurlik bo'yicha taqsimlanishi:

a - $t=30\text{ min}$; b - $t=1\text{ soat}$; c - $t=2\text{ soat}$; d - $t=3\text{ soat}$.


3.1. Kremniyga avval Zn kirishma atomlarini $T=1180^{\circ}\text{C}$ haroratda, so'ngra S kirishma atomlarini $T=1250^{\circ}\text{C}$ haroratda diffuziya qilish mexanizmi. Dastlab rux kirishma atomlari uchun diffuziya jarayoni 1180°C haroratda bajarilib, bu jarayonda diffuziya vaqtleri 30 min, 1 soat, 2 soat va 3 soat qilib belgilandi. Keyingi bosqichda oltingugurt kirishma atomlari uchun diffuziya jarayoni 1250°C haroratda amalga oshirildi. Bu sharoitida diffuziya vaqt 20 soat qilib belgilandi. Olingan natijalar 1-rasmda keltirilgan.




a)








b)



c)



2-rasm. Kremniy monokristalliga dastlab oltingugurt ($T=1250\text{ }^{\circ}\text{C}; t=20$ soat) so 'ngra rux ($T=1180\text{ }^{\circ}\text{C}; t=30$ min, 1 soat; 2 soat, 3 soat) kirishma atomlari diffuziyasining chuqurlik bo'yicha taqsimlanishi: a – $t=30$ min; b – $t=1$ soat; c – $t=2$ soat; d – $t=3$ soat.



3-rasm. Oltin gururt va rux kirishma atomlarini kremniy monokristalliga $T=1250\text{ }^{\circ}\text{C}$ haroratdagи parallel diffuziyasining taqsimoti:
a – $t=10$ min; b – $t=30$ min; c – $t=1$ soat; d – $t=5$ soat;
e – $t=10$ soat; f – $t=20$ soat.

3.2. Kremniya avval S kirishma atomlarini $T=1250\text{ }^{\circ}\text{C}$ haroratda, so 'ngra Zn kirishma atomlarini $T=1180\text{ }^{\circ}\text{C}$ haroratda diffuziya qilish mexanizmi. Dastlab oltingurut kirishma atomlari uchun diffuziya jarayoni $1250\text{ }^{\circ}\text{C}$ haroratda bajarildi va bunda diffuziya vaqtini 20 soatni tashkil etdi. Rux elementi uchun esa diffuziya jarayoni $1180\text{ }^{\circ}\text{C}$ haroratda bajarilganda bu harorat uchun diffuziya vaqtlari 30 minut, 1 soat, 2 soat va 3 soatni tashkil etdi. Bir qancha o'tkazilgan hisoblash natijalaridan ba'zilarining grafigi, ya'ni $N_{n,p}$ (cm^{-3}) – diffuziyalangan atomlarning konsentratsiyasi, x [μm] – diffuziya chuqurligiga bog'liqligi 2-rasmda keltirilgan.

3.3. Kremniya S va Zn kirishma atomlarini bir vaqtda (parallel) $T=1250\text{ }^{\circ}\text{C}$ haroratda diffuziya qilish mexanizmi. Kremniy monokristalliga oltingugurt va rux kirishma atomlarining parallel diffuziyasi, ya'ni turli vaqt va harorat sharoitlarida bir vaqtda (parallel) oltingugurt va rux kirishma atomlari diffuziya qilingandagi taqsimoti hisoblandi. Bunda diffuziya jarayoni $1250\text{ }^{\circ}\text{C}$ haroratda bajarildi va diffuziya vaqtlari 10 minut, 30 minut, 1 soat 5 soat, 10 soat va 20 soatni tashkil yetdi. Bir qancha o'tkazilagan hisoblash natijalaridan ba'zilarining grafigi, ya'ni $N_{n,p}$ (cm^{-3}) – diffuziyalangan atomlarning konsen-

tratsiyasi, x [μm] - diffuziya chuqurligiga bog'liqligi 3-rasmida keltirilgan.

Xulosa. Olib borilgan tahlillar va hisoblashlar natijasida kremniyda ZnS binar nanoklasterlarining hosil bo'lishi uchun zarur shartlar aniqlandi. Xususan, rux va oltingugurt

kirishma atomlarining ketma-ket diffuziyasida dastlab rux, so'ng oltingugurt atomlarini kiritish maqsadga muvofiq ekanligi aniqlandi. Ushbu jarayonda rux uchun maqbul diffuziya harorati 1180°C , oltingugurt uchun esa 1250°C bo'lishi aniqlandi.

Adabiyotlar

1. McCloy J., Tustison R. Chemical vapor deposited zinc sulfide. // SPIE The International Society for Optical Engineering. 2013. – P. 1-9.
2. Onwudiwe D.C., Adeyemi J.O., Papane R.T., Bobinihi F.F., Hosten E. Synthesis, optical and structural characterisation of ZnS nanoparticles derived from Zn(II) dithiocarbamate complexes // Open Chemistry. 2021. Vol. 19. -P. 1134-1147.
3. Iliev Kh.M., Koveshnikov S.V., Isakov B.O., Kosbergenovb E.Zh., Kushiev G.A., Khudoynazarov Z.B. The Elemental Composition Investigation of Silicon Doped with Gallium and Antimony Atoms // Surface Engineering and Applied Electrochemistry. 2024. Vol. 60, №. 4. – P. 633–639.
4. Iliev Kh.M., Zikrillaev N.F., Ayupov K.S., Isakov B.O., Abdurakhmanov B.A., Umardodjaeva Z.N., Isamiddinova L.I. Effect of GaSb Compound on Silicon Bandgap Energy. // Journal of Nano- and Electronic Physics. 2024. Vol. 16, № 2. - P. 1-4.
5. Iliyev X.M., Isamov S.B., Isakov B.O., Qurbanova U.X., Abduraxmonov S.A. A surface study of Si doped simultaneously with Ga and Sb. // East European Journal of Physics. 2023. № 3. – P. 303-307.

REZYUME. Ushbu ish Zn va S kirishma atomlarini kremniyga legirlashning diffuziya usulini matematik modellashga bag'ishlangan. Ishda diffuziyani 3 mexanizmini modeli ishlab chiqilgan bo'lib, hisoblashlar natijalari kremniyda ZnS binar nanoklasterlarini shakllantirishda avval Zn so'ngra S kirishma atomlarini diffuziyasi afzalligini ko'rsatdi.

РЕЗЮМЕ. Работа посвящена математическому моделированию метода диффузии примесей Zn и S, легированных в кремний. В работе разработана модель трех различных механизмов диффузии, а результаты расчетов показали, что при формировании бинарных нанокластеров ZnS в кремнии предпочтительнее диффузия сначала Zn, а затем легирующих примесей S.

SUMMARY. This work is devoted to the mathematical modeling of the diffusion method of impurity Zn and S doped into silicon. In the work, a model of three different diffusion mechanisms was developed, and the results of the calculations showed that the diffusion of Zn first, then S dopants, is preferable in the formation of ZnS binary nanoclusters in silicon.

UO'K 622.274.4

QAZIB OLINGAN BO'SHLIQNI TO'LDIRISHDA BOYITISH FABRIKALARI CHIQINDILARIDAN FOYDALANIB RUDA SIFATSIZLANISH KO'RSATKICHINI KAMAYTIRISHGA ERISHISH

O.A.Xasanov – texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori

Toshkent davlat texnika universiteti Olmaliq filiali

D.X.Berdiyeva – doktorant

Toshkent davlat texnika universiteti

Tayanch so'zlar: qotuvchi to'lg'azma, qiya devorli kamera, boyitish qoldiqlari, maydalangan shlak, xvost qo'shimchasi aralashmasi, yoppasiga qazib olish.

Ключевые слова: твердеющая закладка, камера с наклонными стенками, хвосты обогащения, дробленый шлак, смесь добавок в хвостохранилище, вскрышные разработки.

Key words: hardening backfill, chamber with inclined walls, tailings enrichment, crushed slag, mixture of stability in the tailings pond, overburden mining.

Kirish. Dunyo kon-metallurgiya sanoatining xom ashyo bazasining asosini yirik metall rudali konlar tashkil etadi, ularni qazib olib bo'shlqnini qotuvchi to'lg'azma aralashmalari bilan to'ldirish orqali amalga oshiriladi. Bunday qazib olish tizimining kamchiliklari texnologik sabablarga ko'ra to'lg'azma aralashmalari bilan ruda sifatsizlanishidir.

Bunday to'lg'azmaning ulushi 10% ga yetadi, vaholanki rudada 1% to'lg'azmaning mavjudligi metallarni ajratib olishni 10% ga kamaytiradi. Shuning uchun foydali qazilma bilan to'lg'azma materiallarini qazib olish ruda sifatsizlanishida dolbzabarbdir va uni ishlab chiqish kerak.

Qazib olingan bo'shlqnini to'lg'azma bilan to'ldirish texnologiyasi Rossiyadagi Gorevskiy, Gayskiy, Korobkovskiy, Ridderskiy, Vysokogorskiy, Streltsovskiy, Tishinskiy, Talnaxskiy, Oktyabrskiy, Uchalinskiy konlarini va O'zbekiston konlari, murakkab kon-geologik sharoitida yotgan konlarni o'zlashtirishda qo'llaniladi.

Konlarda foydali qazilmalarni qazib olib bo'shlqnini to'ldirishda quyma, in'ektsionli, gidro to'ldirish, yarim

alo힒ida usullari qo'llaniladi. Bu usullarda foydali qazilmani qazib olish bir vaqtida qazib olinadi va keyin to'ldirish ishlari amalga oshiriladi.

Qattiq monolit to'lg'azmali sistemani qabul qilish ikkita qo'shni kameralar orasidagi selklarsiz qazib olish mustahkamligini ta'minlaydi [1-3].

Tadqiqotning asosiy qismi. To'lg'azma xom ashysi sifatsiz rudalarini boyitish orqali metallarni ajratib olish yomonlashadi. To'lg'azmadan foydalanish qazib olish intensivligini pasaytiradi, shuning uchun to'lg'azma massivi tog' jinsi va qotuvchi to'lg'azmani birlashtirish orqali shakllantiradi.

Aralashmaning asosi qotuvchi to'lg'azma bo'lib, u turli xil mustahkam massivda sun'iy tuzilmalarni yaratish imkoniyatini ifodalaydi. OKMK qoshidagi Kavuldi oltin konida ikkilamchi kameralarni qazib olish jarayonida kon bosim darajasini pasaytirish kameralarni trapetsiya shakl usuli ta'minlaydi.

Qazib olingan bo'shlq barqarorligiga va kon bosimining yuqoriligiga qarab, massivning barqarorligini

boshqarishni yaxshilaydigan, tog' jinsi va sementli-tog' jinsi aralashmalar qo'llaniladi. Aralashgan qazib olish tizimida rudalarni qo'porib olish va qotuvchi to'lg'azma aralashma bilan to'ldirish geomexanik vaziyat sharoitida kon korxonasining ishlab chiqarish quvvatining saqlanishini ta'minlaydi va kapital inshoatlar xizmat qilish muddatini uzaytiradi.

Qalin qimmatbaho rudali konlarini qazib olish ko'rsatkichlarini yaxshilashga rudalarni qotuvchi to'lg'azma chegara devori qiya bo'lgan kameralar orqali yoppasiga qazish orqali erishish mumkin.

Rossiya (Gayskiy, Taymir, Toshtagolskiy) va xorijdagi (Berkli, Kreyton, Iso tog'i) konlarida ruda qazib olish amaliyoti va boshqalarda kameralarni to'lg'azma massiviga yotqizish 25° gacha moyilligi, maksimal bosim kuchlanishini kamaytirish orqali ruda sifatsizlanishini kamaytirishini tasdiqlaydi.


Kamerali qazib olish tizimi orqali zaxiralarni to'liq qazib olishga erishiladi, ammo qotuvchi to'lg'azma aralashmasi bilan ruda sifatsizlanishini yetarli darajada oshiradi. Ushbu kamchilik ilg'or texnologiyadan foydalanish samaradorligini obro'sizlantiradi.

Sun'iy massivning shakllanish tamoyillari va barqarorlik mezonlari ishlab chiqilgan, ammo to'lg'azma massivining ruda tanasi bilan o'zaro ta'sir mexanizmi batafsil ma'lumotni talab qiladi, shuning uchun tadqiqotning maqsadi sun'iy massivni ruda bilan aloqa qilish zonasida mustahkamlash uchun zaxiralarni izlashdir [4-6].

Muammoning dolzarbligi sifatsizlangan rudalar nafaqat kon korxonalar atrofida, balki mintaqaviy va global darajada atrof-muhit holatiga faol ta'sir ko'rsatadigan boyitish chiqindilarini oshirishi bilan ortadi [7-9].

Ishning maqsadi-qotishma aralashmalarining tarkibiy qismlari tomonidan rudani sifatsizlanishini kamaytirish texnologiyasini ishlab chiqish, shu jumladan qazib olish kameralarining qiyaligini to'lg'azma massiviga yotqizish va to'lg'azma o'lchamini optimallashtirish.

Tadqiqot obyekti. OMKK qoshidagi Kovuldi oltin koni ruda tanasining qalnligi 40 m gacha bo'lgan qattiq va qimmatbaho rudalar, ruda tanasining yotish qiyalik burchagi 50-100 gacha, 250-300 m chuqurlikda yotadi, kameralar qazib olinib qazib olingan bo'shlid qotuvchi to'lg'azma bilan to'ldiriladi (1-rasm).



1-rasm. Ruda devorining to'lg'azma massiviga og'dirish texnologiyasi

Kamera ruda devori qiyaligining samaradorligi 50 m oraliq qazib olishda ruda devori bosimi kriteriyasi bo'yicha qazib olish ruda tanasi 700 m chuqurlikda modellashtirish orqali baholandi (1-jadval).

1-jadval.

Devor og'ish burchagi, gradus	Maksimal bosim MPa, ruda tanasining ostki qismidan bo'lgan masofa m.		
	10	20	30
90	34	39	44
75	29	32	39
60	24	26	27

Kamera devorlari 5 dan 25 gradusgacha bo'lganda qotuvchi to'lg'azma bilan to'ldirilgan kameraning devoridagi bosim kuchlanishini 1,4 – 1,6 baravar kamaytirishi aniqlandi.

Qiya devorli kameralarni qazib olish natijalari 2-jadvalda keltirilgan.

Kameralarni qazib olishda rudani to'lg'azma bilan sifatsizlanishi 2-jadval

Kameralar	O'lchamlari, m		Og'ish, grad.	Sifatsizlanish, %
	Balandligi	Uzunligi		
K-I	36	16	76	3,9
K-II	36	15,6	77	1,9
K-III	36	16	76	2,0
K-IV	36	15	79	1,7
K-VI	37	16	76	2,2
K-V	37	18	75	2,3
K-VII	37	14	78	2,1

Qotuvchi aralashmalar tomonidan ruda sifatsizlanishini kamaytirish yo'nalishlaridan biri bu aralashmaning tarkibiy qismlarini faollashtirish orqali ularni mustahkamlashdir.

Qotuvchi aralashmalar tarkibini optimallashtirish uchun tegirmonlarda faollashadigan variantlar o'rGANildi.

1m^3 aralashmaga sarflangan 300 kg M400 kg sement, 550 kg qum, 1300 kg qayta ishslash chiqindilari va 200 dm^3 suv sarflandi. Qazib olingan bo'shlilarni to'ldirishda boyitish qoldiqlari asosida qotuvchi to'lg'azma aralashmasi hosil qilishni tadqiqot natijalari aniqladi [10-12].

Boyitish qoldiqlarining kimyoiy tarkibi 3-jadval

Tarkibi, %	Fraktsialar mm				
	+40-80	+25-40	+12-25	+6-12	Умумий
Pb	0,03	0,04	0,03	0,06	0,07
Zn	0,25	0,20	0,30	0,35	0,30
Cu	0,12	0,030	0,020	0,025	0,030
Fe	3,56	2,80	3,15	2,30	2,12
CaO	1,80	1,90	1,60	1,90	1,70
MgO	0,60	0,81	0,72	0,85	0,68
Al ₂ O ₃	10,5	9,70	9,25	9,84	8,73
SiO ₂	76,2	74,3	78,7	75,1	75,1
Sym.	0,62	0,53	0,49	0,68	0,68
S.	0,03	0,01	0,01	0,01	0,01

Boshqa birxil sharoitda na'munalar bog'lovchi miqdorida farq qildi. Yirik to'ldiruvchili na'munalarda bog'lovchi aralashmaga 450, 400, 350 va 300 kg/m^3 qo'shib o'zgartirildi va mayda to'ldiruvchi bilan 400, 350, 300 va 250 kg/m^3 qo'shildi. Bog'lovchi sifatida portlant sement va maydalangan shlak aralashmasidan foydalanildi.

Tajribalarning ishonchlilagini oshirish uchun mintaqadagi boshqa qayta ishlash boyitish fabrika chiqindilari o'rganildi. To'lg'azma o'lchamlarining (50% shag'al va 50% chiqindilar) birlashtirib, aralashmaning kuchi 1,15 – 1,25 barobar ortadi.

Murakkab bog'lovchi va har xil o'lchamdag'i boyitish fabrikasi chiqindilari aralashma tadqiqot natijasi 4-jadvalda keltirilgan.

Murakkab bog'lovchi bilan aralashmaning mustahkamligi 4-jadval

Variantlar	Ko'rsatkichlar				
Mayda bo'laklar					
Portlant sement sarfi, kg/m ³	60	80	100	120	180
Mustahkamligi, MPa	0,91	1,20	1,40	1,58	2,1
Yirik bo'laklar					
Portlant sement sarfi, kg/m ³	60	80	100	120	180
Mustahkamligi, MPa	2,36	2,95	3,41	3,77	4,90

Tegirmondan keyin tasniflash orqali to'ldiruvchilarining o'lchamini kattalashtirish aralashmasi mustahkamligini oshiradi, deb ko'rsatadi [13-14].

Qotuvchi to'lg'azma aralashmasini OKMK qoshidagi metallarni eritish zavodlari va boyitish fabrikalari chiqindilarni ishlatish variantlarini tadqiq qilindi:

- sement va boyitish chiqindilari faollashmasiz;
- sharli tegirmonida faollashtirilgan sement va chiqindilar;
- parchalanuvchida faollashadigan sement va boyitish chiqindilar.

Tegirmonda va parchalanuvchida faollashuv natijalarini taqqoslash faol bo'lak teng rentabelligi bilan ikkinchi variantda aralashmaning mustahkamligi oshganligini ko'rsatadi (5-jadval).

Faollashtirilgan xvost qo'shimchasi aralashmasi bilan beton mustahkamligi 5-jadval

Aralashma komponentlari, kg/m ³				Mustahkamlik MPa, koeffitsiyent, yoshi, c.			
Sement	Bog'lovchi xvostlar	To'ldiruvchi	Suv	14	28	90	
Sharli tegirmonlarda faollash (yupqaligi 40%)							
40	400	1200	350	0,33	14	0,40	10
80	360	1200	350	0,42	11	0,60	18
120	320	1200	350	0,81	9	1,00	24
180	260	1200	350	1,07	12	1,25	13
Disintegratorda faollashtirish (yupqaligi 40%)							
40	400	1200	350	0,61	15	0,90	21
80	370	1200	350	0,90	7	1,20	6
120	320	1200	350	1,20	16	1,40	4
180	260	1200	350	1,64	28	1,70	24

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadi, tegirmonlarda mexanik faollashuv va qotuvchi to'lg'azma aralashmasini

to'ldirish klassifikatsiyasi sun'iy massiv devorining barqarorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

Nishab konlarni to'liq qazib olishni oshirish va rudani sifatsizlanishini kamaytirish qiya devorli kameralarda rudalarni yoppasiga qazib olish bilan ta'minlanadi. Foydali qazilmani yer qaridan qazib olish sifati va to'liqligini oshirish usullariga to'lg'azma aralashmasi to'ldirilishi kerak bo'lgan kameralarini shakllantirish elementi kiradi, kameraning devor qiyalik burchagi ruda va to'lg'azma yotqizish yuzasiga ta'sirining barqaror parametrlari bilan belgilanadi.

To'lg'azma aralashma massivi devoriga yotgan ruda tanasidagi kameraning uzunligi va balandligini oshirish mustahkamlikni kamaytirmagan holatda oshadi. Kamerani devori tekisligi bo'ylab va shift bo'ylab konturlash uchun bir qator kontur skvajinalari oldindan portlatiladi. Ekranlashtiruvchi bo'shilq zaryaddan massivga keladigan yoriqlarni to'xtatib, massivning mustahkamligini va uning turg'unligini saqlaydi.

Skvajina konturlari kameraning chegarasiga parallel ravishda joylashtiriladi. Ularni zaryad qilish uchun xalqali havo bo'shilq'i bo'lgan zaryadlar ishlatiladi. Zaryadlarni portlatish sektsiyalarga bo'linib portlatiladi.

Rudani qo'porib olishda diametri 85 mm yuqori skvajina zaryadlar portlatiladi.

Portlashning kamera devorlariga ta'sirini kamaytirish uchun skvajinalar yaqinlashuv koyeffitsiyentining kattaligi eng kam qarshilik chizig'ining kamayishi bilan oshiriladi.

Kuchlanish yuqori joylarda va ruda massiviga tutashgan zonalardagi bo'shilqlarga mustahkamligi yuqori bo'lgan va o'rta oraliqdagi bo'shilqlarga mustahkamligi past bo'lgan to'lg'azma hosil qilinadi.

Qazib olish ishlari qirquvchi tirkishni hosil qilishda skvajinalarni kesuvchi ko'tarmaga portlatish yo'li bilan boshlanadi. Barcha qo'porilgan ruda kesuvchi tirkish orqali tushuriladi va nimqavatda qo'porish ishlari boshlanadi. Qazib olish yuqorida pastga qarab amalga oshiriladi.

To'lg'azma qavatlarning butun qismlariga nisbatan tabiiy qiyalik burchagida joylashishi lozim.

Xulosalar:

Texnologiyani takomillashtirish samaradorligi yangi texnologiyani joriy yetish xarajatlarining kamayishi va asosiy daraja o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadi.

Ko'pgina konchilik korxonalarida bir birlikda 250000 tonna balans rudani qazib olishda va skvajinalarni konturli portlatish va yoppasiga qazib olish, kamera devorlarini to'lg'azmaga qiya holatda o'tqazish va har xil mustahkamlikga ega bo'lgan su'niy massivni yaratish iqtisodiy samara olish imkonini beradi, qachonki ruda sifatsizlanishni 3-5% kamaytirilsa.

Sun'iy massivlar devorlari barqarorligini oshirishning istiqbollisi yo'nalishi-bu qotuvchi to'lg'azma aralashmalarini ishlab chiqarishni faollashtirish va donadorligini oshirish.

Yoppasiga qazib olish tizimi va skvajinalarning konturli portlatilishi qimmatbaho rudalarni to'liq qazib olishning va rudalarni sifatsizlanishning pasayishini ta'minlaydi.

Qazib olish tizimlarining kamera devorlari qiya va skvajinalarni kontur bilan portlatish variantlaridan foydalanish iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy samaralar keltirib chiqaradi.

Adabiyotlar

1. Дребенштедт К., Голик В.И., Дмитрак Ю.В. Перспективы диверсификации технологии добычи металлов в РСО. - Алания // Устойчивое развитие горных территорий. 2018. -Т. 10. № 1 (35). -С.125-131.
2. Повышение экономической эффективности горнодобывающих предприятий за счет вовлечения в эксплуатацию техногенных георесурсов. / С.Е.Гавришев, С.Н.Корнилов, И.А.Пыталев, И.В.Гапонова. // Горный журнал. 2017. № 12. -С. 46-51.
3. Бурмистров К.В., Овсянников М.П. Обоснование параметров этапа открытых горных работ в переходные периоды разработки крутопадающих месторождений. // Горный информационно-аналитический бюллетень. 2018. № 6. -С. 20–28.
4. Бердиева Д.Х. Совершенствования закладочных работ в системе разработки месторождения Каулди. // Экономика и социум. №11(78) 2020. -С. 504-508.
5. Бердиева Д.Х., Субанова З.А. К вопросу снижения себестоимости закладочных работ при системе разработки горизонтальными слоями с закладкой. // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. 2021. Volume 1, issue 4. –Р. 674-679.
6. Бердиева Д.Х. Косимов М.О. Выбор оптимального варианта системы разработки на руднике Каулди. // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. 2021. Volume 1, issue 7. –Р. 235-240.
7. Каплунов Д.Р., Рыльникова М.В., Радченко Д.Н. и др. Передвижные закладочные комплексы в системах разработки рудных месторождений с закладкой выработанных пространств. // Горный журнал, № 2. 2013. –С. 101–104.
8. Вертячих К.С. Аспекты применения закладки в зарубежной и отечественной практике подземной разработке руд. К.С.Вертячих, А.М.Хакуре. Горный информационно - аналитический бюллетень №7. –М.: МГГУ, 2002. –С. 88-92.
9. Медведев В.В. Повышение эффективности закладочных работ при камерных системах разработки. Забайкалье. Сборник научных трудов. Отдельный выпуск Горного информационно-аналитического бюллетеня. – М.: МГГУ., Вып. 4. 2007. –С. 80-84.
10. Бакиновский И.И., Иванов В.М. Опыт и перспективы применения твердеющей закладки. // Горный журнал. № 3. 1994 г. –С. 16-19.
11. Каплунов Д.Р., Рыльникова М.В., Радченко Д.Н., Арсентьев В.А., Квитка В.В., Маннанов Р.Ш. Новая технология и оборудование для высокопроизводительной закладки выработанного пространства при подземной отработке месторождений. // Горный журнал, 2012. –С. 41-43.
12. Вяткин А.П., Горбачев В.Г., Рубцов В.А. Твердеющая закладка на рудниках.- М.: «Недра», 1983. –С. 320.
13. Каплунов Д.Р., Рыльникова М.В., Радченко Д.Н., Корнеев Ю.В. Передвижные закладочные комплексы в системах разработки рудных месторождений с закладкой выработанных пространств. // Горный журнал, 2013. –С. 41-43.
14. Бакиров Г.Х. Распределение напряжений вокруг выработанного пространства. // Экономика и социум. – 2021. №. 12-1 (91). – С. 827-832.

REZYUME. Maqolada —Olmaliq kon-metallurgiya kombinati aksiyadorlik jamiyatiga qarashli Kovului oltin konida qollanilayotgan qazib olish tizimi ya’ni qazib olingan bo‘shliqni to‘ldirib qazib olishda to‘lg‘azma materiallarining tarkibini tanlash metodologiyasi yordamida qazib olingan bo‘shliqni to‘ldirish ishlari hamda texnik jihatdan tatbiq qilish imkoniyatlari ko‘rib chiqilgan.

РЕЗЮМЕ. В статье рассматривается система разработки, применяемая на золоторудном руднике Ковульди, принадлежащем акционерному обществу «Алмалыкского горно-металлургического комбината», т.е. закладка выработанного пространства с использованием методики подбора состава закладочных материалов при закладочных горных работах и возможности технического применения.

SUMMARY. The article discusses the development system used at the Kovului gold mine, owned by the Almalyk Mining and Metallurgical Combine joint-stock company, i.e. backfilling of mined-out space using a methodology for selecting the composition of backfill materials were considered during backfill mining operations and the possibility of technical application.

СПЕКТРАЛ ПАРАМЕТРЛИ ЭЛЛИПТИК ТИПДАГИ ТЕНГЛАМА УЧУН

АРАЛАШ ЧЕГАРАВИЙ МАСАЛА

Х.Исламов – катта ўқитувчи

Р.Карасакалов – катта ўқитувчи

Термиз давлат педагогика институту

Таянч сўзлар: эллиптик тенглама, спектрал параметр, аралаш масала, экстремум принципи, масала ечими.**Ключевые слова:** эллиптические уравнения, спектральный параметр, смешанные задачи, принцип экстремума, решение задачи.**Key words:** elliptic equation, spectral parameter, mixed problem, extremum principle, problem solution.

Куйидаги тенгламани қараймиз:

$$y^m u_{xx} + |x|^n u_{yy} - \lambda^2 u = 0 \quad m > n > 0 \quad (1)$$

$$D \text{ соҳа } \Gamma_j: \frac{1}{q^2} |x|^{2q} + \frac{1}{p^2} y^{2p} = 1 \text{ учлари}$$

$A_j(|h_1|, 0), B(0, h_2)$ нуқталарда бўлган Γ_j чизик ва координата ўқларининг OA_j кесмаси $y=0$ да $x \geq 0, h_1 > 0$ $j=1;$ ва $x \leq 0, h_1 < 0$ $j=2;$ $\lambda \in (-\infty; +\infty), 2p = m + 2, 2q = n + 2$ $h_1 = q^{\frac{1}{q}}, h = p^{\frac{1}{p}}$,

$$D_1 = D \cap \{(x, y) : x > 0, y > 0\}$$

$$D_2 = D \cap \{(x, y) : x < 0, y > 0\}$$

$$I_1 = \{(x, y) : 0 < x < h_1, y = 0\},$$

$$I_2 = \{(x, y) : -h_1 < x < 0, y = 0\},$$

$$I_3 = \{(x, y) : 0 < y < h_2, x = 0\},$$

(1) тенгламанинг D соҳадаги $u(x, y)$ регуляр ечими деб, $u(x, y) \in C(\overline{D}_j) \cap C^1(\Gamma_j) \cap C^2(D_j)$ синфа тегишли бўлиб, $D_j (j=1,2)$ соҳада тенгламани қаноатлантиради ва u_x, u_y функциялар $I_i (i=1,2,3)$ интервалнинг четки нуқталарида бирдан кичик бўлган $\frac{1-2\beta}{1-2\alpha}$ тартибли маҳсусликка айланиш мумкин, бу ерда мос равиша,

$$2\beta = \frac{m}{m+2}, \quad 2\alpha = \frac{n}{n+2} \quad 0 < \alpha < \beta < 0,5 \quad (2)$$

CN_λ^P масала. D соҳада регуляр бўлиб, (1) тенгламанинг, куйидаги шартларни қаноатлантирувчи ечимини топинг:

$$\left[\delta_j(s) A_s^J[u] + \rho_j(s) u \right]_{\Gamma_j} = \varphi_j(s), 0 \leq s \leq l \quad (3_j)$$

$$\lim_{x \rightarrow +0} u(x, y) = p_1(y) \lim_{x \rightarrow -0} u(x, y) + q_1(y), (0, y) \in I_3 \quad (4_1)$$

$$\lim_{x \rightarrow +0} u_x(x, y) = p_2(y) \lim_{x \rightarrow -0} u_x(x, y) + q_2(y), (0, y) \in I_3 \quad (4_2)$$

$$a_j(x) u_y(x, 0) + b_j(x) \left(|x|^{2q} \right)^{\frac{1-2\alpha}{2}} \frac{d}{d(|x|^{2q})} \left(|x|^{2q} \right)^{\frac{1-2\beta}{2}} x \quad (5_j)$$

$$x F_{0x} \left[\begin{matrix} \alpha + \beta, & \frac{2\beta - 1}{2} \\ 2\beta, & |x|^{2q} \end{matrix} \right] \left(|x|^{2q} \right)^{\frac{2\alpha - 1}{2}} u(x, 0) = c_j(x)$$

Бу ерда $F_{0x} [\]$ бизга маълум бўлган каср тартибли интегродифференциал оператор [1].

$$F_{0x} \left[\begin{matrix} a & b \\ c & x^k \end{matrix} \right] f(x) = \frac{1}{\Gamma(c)} \int_0^x f(t) (x^k - t^k)^{c-1}$$

$$F(a, b, c; \frac{x^k - t^k}{x^k}) k t^{k-1} dt$$

$$F_{x1} \left[\begin{matrix} a & b \\ c & x^k \end{matrix} \right] f(x) = \frac{1}{\Gamma(c)} \int_x^1 f(t) (x^k - t^k)^{c-1} F($$

$$a, b, c; \frac{x^k - t^k}{x^k}) k t^{k-1} dt, c > 0$$

$\delta_j(s), p_j(y), q_j(y), \rho_j(s), \varphi_j(s), a_j(x), b_j(x), c_j(x), (j=1,2)$ лар берилган функциялар, бу функциялар учун куйидаги муносабатлар ўринли бўлсин:

$$\delta_j^2(s) + \rho_j^2(s) \neq 0, \forall s \in [0,1]$$

$$a_j^2(x) + b_j^2(x) \neq 0 \quad \forall (x, 0) \in \overline{I}_j \quad (6_j)$$

$$\delta_j(s), \rho_j(s), \varphi_j(s) \in C[0,1] \quad (7_j)$$

$$p_j(y), q_j(y) \in C(\overline{I}_3) \cup C^2(I_3), a_j(x), b(x), c_j(x) \in C(\overline{I}_j) \cap C^2(I_j) \quad (8_j)$$

$$A_s^+ [u] \equiv y^m \frac{dy}{ds} \frac{\partial u}{\partial x} - x^n \frac{dx}{ds} \frac{\partial u}{\partial y}$$

Масалани ўрганишда $\delta(s) \neq 0$ деб фараз қиласиз, шу билан бирга Γ_1, Γ_2 чизиклар куйидаги шартларни қаноатлантирусин:

1. Бу чизикларнинг параметрик тенгламаси $x = x(s), y = y(s)$

2. $x(s), y(s)$ функциялар $[0,1]$ кесмада биринчи тартибли хосилага эга бўлиб бир вақтда нолга тенг бўлмасин, иккинчи тартибли хосилалари Гёльдер шартини қаноатлантирусин.

3. $A_j(|h_1|, 0)$ ва $B(0, h_2)$ нуқталар атрофида ушбу шартлар бажарилсин:

$$x^{\frac{n}{2}} \left| \frac{dx}{ds} \right| \leq const \cdot y^{m+1}, y^{\frac{m}{2}} \left| \frac{dy}{ds} \right| \leq const \cdot x^{n+1},$$

$$x(0) = y(0) = 0, x(0) = h_1, y(l) = h_2$$

Теорема 1. Агар (2) шарт бажарилса хамда

$$a_j(x) \geq 0, b_j(x) \leq 0, \forall (x, 0) \in \overline{I}_j \quad (j=1,2) \quad (9)$$

$$p_j(y), q_j(y) > 0, \forall y \in \overline{I}_3 \quad \delta_j(s)\rho_j(s) \geq 0 \quad \forall (s \in [0, l]) \quad (10)$$

$\delta_j(s)$ ва $\rho_j(s)$ функциялар $A_j(|h_1|, 0), B(0, h_2)$ нүкталар атрофиди

$$\rho_j(0) \neq 0, \rho_j(l) \neq 0 \text{ бўлиб}$$

$$\left| \delta_j(s) \right| \leq const [s(l-s)]^{1-\frac{n}{2}}, 0 < n < 0 \quad (11)$$

$$\left| \delta_j(s) \right| \leq const, \quad n \geq 2 \quad (12)$$

шартлар бажарилса, у ҳолда D соҳада CN_λ^P масала ягона ечимга эга бўлади.

Исбот: Агар (2) ва (8) шартлар бажарилса, у ҳолда CN_λ^P масаланинг $u(x, y)$ ечими $\varphi_1(s) \equiv \varphi_2(s) \equiv 0, c_j(x) = 0$ ($j=1,2$) бўлганда ўзининг мусбат максимум ва манфий минумига \overline{D} соҳанинг $\Gamma_1 \cup \Gamma_2$ чегарасида эришади.

Фараз қилайлик мусбат максимумга қандайдир $A_j(|h_1|, 0), B(0, h_2)$ нүкталардан фарқли $s_0 \in \Gamma_1 \cup \Gamma_2$ нүктада эришсин. У ҳолда Заремба – Жиро принципига асосан [1] $A_s^+ u > 0$ ва (3) чегаравий шартдан

$$A_{s_0}^+ u = -\frac{\rho(s_0) \delta(s_0)}{\delta^2(s_0)} u \quad \text{бу} \quad (10)$$

асосан бажарилмайди. Шунингдек $\Gamma_1 \cup \Gamma_2$ нинг ички нүкталарида ҳам $u(x, y)$ ўзиниг мусбат максимумига эришмайди.

$A_j(|h_1|, 0)$ ва $B(0, h_2)$ нүкталарда (2), (11) ва (12) шартларга асосан.

$$\lim_{s \rightarrow 0} \delta_j(s) A_s^J u = 0 \quad \text{ва} \quad \lim_{l \rightarrow 0} \delta_j(s) A_s^J u = 0 \quad (13)$$

бўлади.

Агар мусбат максимум га $A_j(|h_1|, 0)$ ёки $B(0, h_2)$ нүкталарда эришса (13) шартга асосан (3) шарт қуидигидаги кўрнишда бўлади

$$\rho_j(0)u(|h_1|, 0) = 0 \quad \text{ёки} \quad \rho_j(l)u(|h_1|, 0) = 0 \quad \text{бўлади}$$

(11) шартни хисобга олсан қуидаги ўринли бўлади.

$$u(A) = u(h_1, 0) = 0, u(B) = u(0, h_2) = 0, \quad (14)$$

Демак $u(x, y)$ функция $A_j(|h_1|, 0)$ ва $B(0, h_2)$ нүкталарида мусбат максимумга эришмайди. Шундай

қилиб $u(x, y)$ мусбат максимумга $\Gamma_1 \cup \Gamma_2$ да эришмайди. Худди шундай мулоҳаза билан манфий минумумга ҳам эришмаслигини кўрсатиш мумкин. Экстремум принципига асосан \overline{D} соҳада $u(x, y) = const$ (14) шартга асосан $u(x, y) \equiv 0$ \overline{D} эканлиги келиб чиқади. Демак (1) тенглама учун CN_λ^P масала ечими ягона бўлади [2].

Теорема 2. Агар (2), (6), (7), (8) шартлар бажарилса D соҳада CN_λ^P масала ечими мавжуд бўлади.

Масала ечимининг мавжудлигини исботлашда қуидагича ёрдамчи масалани қараймиз.

$N_2 C$ масала: (1) тенгламанинг D_1 соҳадаги $u(x, y) \in C(\overline{D}_1) \cap C^1(\Gamma_1 \cup OA_1 \cup D_1) \cap C^2(D_1)$ сингла тегиши ва (3) шарт билан бирга

$$u|_{OB} = \tau_1(y) \quad 0 \leq y \leq h_2 \quad (15)$$

$$u|_{OA_1} = \nu_1(x) \quad 0 < x < h_1 \quad (16)$$

бунда $x \rightarrow 0$, ва $x \rightarrow h_1 u(x, y)$ функция $\frac{1-2\beta}{1-2\alpha}$ тартибли махсусликка айланиш мумкин, бу ерда мос равишида, $2\beta = \frac{m}{m+2}, 2\alpha = \frac{n}{n+2} \quad 0 < \alpha < \beta < 0,5$

$N_2 C$ масала ечими Грин функцияси ёрдамида қуидагича аниқланади:

$$u(x, y) = -\int_0^{h_1} G_2^*(t, 0; x, y) t^n \nu_1(t) dt + \int_0^{h_2} \frac{\partial G_2^*(0, t; x, y)}{\partial x} t^m \tau_1(t) dt + \int_0^l \frac{\phi_1(s)}{\delta(s)} G_2^*(\xi(s), \eta(s); x, y) ds \quad (17)$$

бу ерда

$$G_2^*(\xi, \eta; x, y) = G_{02}(\xi, \eta; x, y) + H_2(\xi, \eta; x, y)$$

Грин функцияси бўлиб,

$$G_{02}(\xi, \eta; x, y) = k_2 \xi t x$$

$$\left[\left(\frac{1}{q} t^q - \frac{1}{q} x^q \right)^2 + \frac{1}{p^2} y^{2p} \right]^{-\beta} \left[\left(\frac{1}{q} t^q + \frac{1}{q} x^q \right)^2 + \frac{1}{p^2} y^{2p} \right]^{\alpha-1}$$

$$F(1-\alpha-\beta, 1-\alpha; 2-2\alpha; z_1) - \left[\left(1 - \frac{1}{q^2} t^q x^q \right)^2 + \frac{x^{2q} y^{2q}}{p^2 q^2} \right]^{-\beta} \left[\left(1 + \frac{1}{q^2} t^q x^q \right)^2 + \frac{x^{2q} y^{2q}}{p^2 q^2} \right]^{\alpha-1}$$

$$F(1-\alpha-\beta, 1-\alpha; 2-2\alpha; z_1^*)$$

$$z_1 = \frac{\frac{4}{q^2} x^q t^q}{\left(\frac{1}{q} t^q + \frac{1}{q} x^q \right)^2 + \frac{1}{p^2} y^{2p}}, z_1^* = \frac{\frac{4}{q^2} x^q t^q}{\left(1 + \frac{1}{q^2} t^q x^q \right)^2 + \frac{1}{q^2 p^2} y^{2p}}, [2].$$

N₁C масала:(1) тенгламанинг D₂ соҳадаги
 $u(x, y) \in C(\overline{D_2}) \cap C^1(\Gamma_2 \cup OA_2 \cup D_2) \cap C^2(D_2)$

синфа тегишили ва (3₂) шарт билан бирга

$$u|_{OB} = \tau_2(y) \quad 0 \leq y \leq h_2 \quad (18)$$

$$u_x|_{OA_2} = \nu_2(x) - h_1 < x < 0 \quad (19)$$

бунда $x \rightarrow 0$, ва $x \rightarrow -h_1$ $u(x, y)$ функция $\frac{1-2\beta}{1-2\alpha}$ тартибли махсусликка айланиш мумкин, бу ерда мос равишида, $2\beta = \frac{m}{m+2}$, $2\alpha = \frac{n}{n+2}$ $0 < \alpha < \beta < 0,5$

N₁C масала ечими Грин функцияси ёрдамида куйидагича аникланади:

$$\begin{aligned} u(x, y) = & - \int_0^{h_1} G_1^*(t, 0; x, y) t^n \nu_1(t) dt - \\ & - \int_0^{h_2} G_1^*(0, t; x, y) t^m \tau_1(t) dt + \\ & + \int_0^l \frac{\phi_2(s)}{\delta(s)} G_1^*(\xi(s), \eta(s); x, y) ds \end{aligned} \quad (20)$$

бу ерда

$$G_1^*(\xi, \eta; x, y) = G_{01}(\xi, \eta; x, y) + H_1(\xi, \eta; x, y)$$

Грин функцияси бўлиб

$$\begin{aligned} G_{01}(t, 0; x, y) = & \\ & = k_1 \left\{ \left[\left(\frac{1}{q} t^q - \frac{1}{q} x^q \right)^2 + \frac{1}{p^2} y^{2p} \right]^{-\beta} \left[\left(\frac{1}{q} t^q + \frac{1}{q} x^q \right)^2 + \frac{1}{p^2} y^{2p} \right]^{-\alpha} X \right\} \\ & \quad XF(\alpha - \beta, \alpha; 2\alpha; z_1) - \end{aligned}$$

$$\left[\left(1 - \frac{1}{q^2} t^q x^q \right)^2 + \frac{x^{2q} y^{2q}}{p^2 q^2} \right]^{-\beta} \left[\left(1 + \frac{1}{q^2} t^q x^q \right)^2 + \frac{x^{2q} y^{2q}}{p^2 q^2} \right]^{-\alpha} X$$

$$XF(\alpha - \beta, \alpha; 2 - 2\alpha; z_1^*)$$

$$G_{01}(0, t; x, y) =$$

$$= k_1 \left\{ \left[\left(\frac{1}{p} y^p - \frac{1}{p} t^p \right)^2 + \frac{1}{q^2} x^{2q} \right]^{-\alpha} \left[\left(\frac{1}{q} y^p + \frac{1}{p} t^p \right)^2 + \frac{1}{q^2} x^{2p} \right]^{-\beta} X \right\} -$$

$$- \left[\left(1 - \frac{1}{p^2} t^p y^p \right)^2 + \frac{x^{2q} y^{2q}}{p^2 q^2} \right]^{-\beta} \left[\left(1 + \frac{1}{p^2} t^p x^q \right)^2 + \frac{x^{2q} y^{2p}}{p^2 q^2} \right] X^{-\alpha}$$

$$XF(\beta - \alpha, \beta; 2\beta; z_2^*)$$

бунда

$$z_2 = \frac{\frac{4}{p^2} y^q t^p}{\left(\frac{1}{p} t^p + \frac{1}{p} y^p \right)^2 + \frac{1}{q^2} x^{2p}}, z_2^* = \frac{\frac{4}{p^2} y^p t^p}{\left(1 + \frac{1}{p^2} y^p t^p \right)^2 + \frac{1}{q^2 p^2} x^{2q} y^{2p}}, [2]$$

Бу топилган ечимларни $x=0$ да ўзаро тенглаштириб ва масалада берилган шартлардан фойдаланиб $\nu_1(x)$ ва $\nu_2(x)$ ларга нисбатан интеграл тенглама ҳосил қиласиз. D_j ($j=1,2$) соҳаларда ва бузилиш чизиклари I_i ($i=1,2,3$) да (4₁) ва (4₂) ларни хисобга олиб CN_λ^p масала унга эквивалент бўлган Фредгольмнинг иккинчи тур интеграл тенгламасига келтирилади. Бу тенглама ечими мавжудлиги тенглама ечими ягоналигидан келиб чиқади.

Адабиётлар

1. Салохитдинов М.С., Исломов Б. Уравнения смешанного типа с двумя линиями вырождения. – Ташкент: «Mumtoz so‘z», 2009. –С. 264.

2. Салохитдинов М.С., Исломов Б. Задачи Дирихле для уравнения эллиптического типа с негладкой линией и различным порядком вырождения внутри области. В.кн.: Дифференциальные уравнения математической физики и их приложения. -Ташкент: «Фан».1989. –С. 11-24.

РЕЗЮМЕ. Маколада спектрал параметрли эллиптик типдаги тенглама учун аралаш чегаравий масаланинг ечими ягоналиги экстремум принципи ёрдамида исботланган ҳамда масала ечими мавжудлиги ҳақидаги теорема келтирилган.

РЕЗЮМЕ. В статье с использованием принципа экстремума доказывается единственность решения смешанной краевой задачи для уравнения эллиптического типа со спектральными параметрами и приводится теорема существования решения задачи.

SUMMARY. Using the extremum principle, the article proves the uniqueness of a solution to a mixed boundary value problem for an elliptic-type equation with spectral parameters and provides an existence theorem for a solution to the issue.

**NIKEL ATOMLARINI KIRITISH ORQALI POLIKRISTALL KREMNIYNING ELEKTR-FIZIK
XUSUSIYATLARINI YAXSHILASH**

Q.A.Ismaylov – fizika-matematika fanlari doktori, professor
Sh.Z.Ollamberganov – tayanch doktorant

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti

Tayanch so‘zlar: polikristall, nikel, diffuziya, klaster, kremniy, kirishma atom.

Ключевые слова: поликристалл, никель, диффузия, кластер, кремний, примесный атом.

Key words: polycrystal, nickel, diffusion, cluster, silicon, impurity atom.

Kirish. Hozirgi kunda kremniy asosidagi materiallar mikroelektronika va fotovoltaika sohalarining tayanch negizini tashkil etadi. Ushbu materiallar orasida polikristall kremniy (poly-Si) va monokristall kremniy (mono-Si) keng tadqiq qilinmoqda va foydalilmoqda [1]. Monokristall kremniy yuqori sifatlari struktura va kam nuqsonlilikka ega bo‘lsa-da, polikristall kremniy ba’zi holatlarda ustunlikka ega. Polikristall kremniy iqtisodiy samaradorlik jihatidan muhim ahamiyat kasb etadi, chunki uning ishlab chiqarish jarayoni kamroq energiya talab etadi va arzonroq texnologiyalarni qo‘llash imkonini beradi. Shuningdek, poly-Si katta o‘lchamdagisi ingotlar shaklida ishlab chiqarilishi tufayli hajm jihatidan ko‘proq material olish imkonini beradi [2]. Bu xususiyat uni quyosh panellarini ishlab chiqarishida keng qo‘llanilishiga sabab bo‘ladi. Polikristall kremniyning boshqa bir muhim afzalligi – uning mexanik va issiqlik barqarorligi bo‘lib, bu uni yuqori haroratlari texnologik jarayonlarda qo‘llashga mos qiladi. Shuningdek, materialning tuzilmasida donalararo chegaralarning mavjudligi uning elektr xususiyatlarini boshqarish va modifikatsiyalash imkoniyatlarini kengaytiradi, bu esa ilmiy izlanishlar va amaliy tadqiqotlar uchun yangi yo‘nalishlar olib beradi [3].

Mazkur maqolada polikristall kremniyning afzalliklari, uning monokristall kremniya nisbatan imkoniyatlari va turli sohalardagi qo‘llanilishi xususida bataysil yoritib beriladi. Shu orqali, ushbu materialning yanada kengroq o‘rganilishi va rivojlantirilishi uchun ilmiy asos yaratiladi. Polikristall kremniy zamonaviy mikroelektronika va quyosh energetikasi sanoatining muhim materiali hisoblanadi. Ushbu materialning elektrfizik xususiyatlarini yaxshilash va uning samaradorligini oshirish maqsadida turli texnologik yondashuvlar qo‘llanilmoqda [4]. Ulardan biri – polikristall kremniy tarkibiga og‘ir metall atomlarini, xususan, nikelni kiritishdir. Nikel atomlarini kremniy strukturasiga kiritish jarayoni materialning elektrfizik parametrlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Nikel klasterlarining shakllanishi va ularning energetik holati elektron o‘tish darajalarini o‘zgartirishi mumkin [5], bu esa polikristall kremniyning qarshiligi, o‘tkazuvchanligi va relaksatsiya jarayonlariga ta’sir qiladi. Shu bilan birga, nikelning donalararo chegaralarda to‘planishi materialning elektr o‘tkazuvchanligini yaxshilashga xizmat qiladi, bu esa fotovoltaikalar va yuqori samarali elektron moslamalar ishlab chiqarishda muhim ahamiyatga ega [6]. Nikelning yana bir foydali jihat – uning kremniy strukturasida defektlarni passivatsiyalash imkoniyatidir. Bu jarayon donalararo chegaralardagi rekombinatsiya jarayonlarini susaytiradi va materialning ishlash samaradorligini oshiradi. Shu bois, polikristall kremniyga nikel kiritish zamonaviy texnologik yechim sifatida ko‘plab ilmiy izlanishlar markazida turibdi [7].

Texnologik qism. Polikristall kremniyi ishlov berish texnologik jarayonlari sanoat va ilmiy tadqiqotlarda muhim o‘rin tutadi. Taqdiqot uchun polikristall kremniy plastinka-


dan o‘lchami 5x10 mm namuna “STX- 402” olmos ipli kesish qurilmasida kesib olindi. Bu usul yordamida kesish aniqlik material isrofi kamligi bilan ajralib turadi ammo namunada chiziqlar va mikrodeffektlar paydo qilinadi. Bu deffektlarni ketkazish uchun polikristall kramniy namunalariga mexanik ishlov berishni talab qiladi.

Mexanik ishlov berish polikristall kremniy plastinkalari (wafers) yuzasining sifatini oshirish uchun ishlatiladi. Bu jarayon kremniy substratlarining yuzasini sillqlash, nuqsonlarni bartaraf etish va keyingi texnologik bosqichlar uchun tayyorlashga qaratilgan. Sillqlash jarayoni plastinkalar yuzasini dastlabki tekislash va qo‘pol nuqsonlarni yo‘qotishga qaratilgan. Sillqlashda silikon karbid (SiC) marakalrini va ketkaziligan qalinlikni aniq yozish kerak abrazivlar keng qo‘llaniladi. Bu material yuqori qattiqlikka ega bo‘lib, kremniy yuzasiga aniq va samarali ishlov beradi.


Polikristall kremniy sirtiga kimyoviy ishlov berish uning yuzasini tozalash, kerakli shaklga keltirish, va yuqori aniqlikdagi sifatini ta’minalash uchun muhim bosqich hisoblanadi. Ushbu jarayon material yuzasidan ma’lum miqdorda qatlamlarni olib tashlash va uni kerakli shaklga keltirish uchun qo‘llaniladi. Kimyoviy ishlov berish jarayoni quyidagi ketma ketlikda amalgga oshiriladi. HF (gidroforid kislotasi) da Kremniy oksid (SiO_2) qatlamini olib tashlashnanadi. HNO_3 (azot kislotasi) yordamida polikristall kremniy yuzasining geometrik xususiyatlarini yaxshilaydi. Kimyoviy ishlov berish jarayoni tugagandan keyin namunalar deionizatsiya qilingan suvda yuvilib quritiladi va nikel purkash jarayoniga tayyorlanadi.

Polikristall kremniy yuzasiga nikel qatlami yotqizish jarayoni diffuziyaning birinchi bosqichi bo‘lib, yuqori sifatlari qoplamanini hosil qilishni talab qiladi. Vakuumli bug‘lanish usuli, nikelning kremniy yuzasiga yupqa qatlami sifatida yotqizilishida keng qo‘llaniladigan texnologiyalaridan biridir. Bu usulda, nikel materialining bug‘ holatiga o‘tishi va undan keyin kremniy yuzasiga kondensatsiya qilinishi amalgga oshadi. Bu jarayon YBP-3M qurilmasida amalgga oshirilda nikel qatlami qalinigi 1mm ga teng bo‘ladi. Nikel diffuziyasi $1000\ ^\circ\text{C}$ temperaturada 30 minut davomida atmosfera muhitida amalgga oshirildi. Polikristall kremniy yuzasida diffuziya jarayonidan keyin qolgan nikel qatlami yoki oksidlarni olib tashlash material sifatini ta’minalash uchun muhim hisoblanadi. Ushbu jarayon kimyoviy tozalash usullari yordamida amalgga oshiriladi. Diffuziyadan keyin hosil bo‘lgan oksid qatlarni olib tashlash uchun HF kisoltada yuzadan qolib ketgan nikel qoldiqlar HCl (xlorid kislotasi) yordamida tozalanadi. Bu jarayon kremniy yuzasini toza va oksidsiz holatga keltiradi. Diffuziya jarayonlaridan so‘ng, yaratilgan namunalarni skanerlovchi elektron mikroskopiyasi (SEM) yordamida o‘rganish ilmiy tadqiqotlar va materialarning sifatini baholash uchun zarur bosqich hisoblanadi. Bu usul orqali nikelning polikristall kremniyga qanday ta’sir qilgani va bu

jarayonlarning natijalari haqida aniq va chuqur ma'lumotlar olish mumkin. Diffuziya jarayoni natijasida yuzada bir qator o'zgarishlar yuz beradi, shu jumladan nikel atomlarining taqsimlanishi, kristall tuzilmasi va fazalar hosil bo'lishi. SEM yordamida yuzaning mikroskopik tuzilishini va tuzilmaviy o'zgarishlarni aniq tasvirlash mumkin. Bu jarayon nikelning kremniyga diffuziya qilish natijalarini ko'rish imkonini beradi. SEM orqali yuzadagi mikron va nanometr o'lchamdagи tuzilmalar, donalararo chegaralar va kristall tuzilmalari o'rganiladi. Bu mikroskopik tahlil yarimo'tkazgich materiallarining sifatini va ularda yuzaga kelgan kamchiliklarni aniqlashda yordam beradi. Nikel kirishma atomlari yuzaga teng taqsimlanishi yoki shovqinli struktura hosil bo'lishi mumkin. SEM bu taqsimlanishning bir tekisligi yoki heterojenligini aniqlashga yordam beradi, bu esa materialning elektr o'tkazuvchanligi va boshqa fizik xususiyatlarini ta'sir qilishi mumkin.



1-rasm diffuziyadan keying polikrisrall kremniy yuzasining skanerlovchi elektron mikroskopda olingan tasvirlari.




2-Rasm namunanining elementar tarkibi.

1-jadval

Суммарный спектр карты				
Элемент	Тип линии	Вес %	Сигма вес %	Атом. %
O	K-серия	42.52	1.73	64.83
Ne	K-серия	14.23	2.87	17.20
Ni	K-серия	43.25	1.81	17.97
Всего		100.00		100.00

SEM orqali, nikelning polikristall kremniy yuzasiga qanday joylashgani va nikel klasterlari qanday shakllanganligi to'g'risida aniq ma'lumotlar olinadi. Bu klasterlarning kattaligi va taqsimlanishining o'rganilishi nikelning diffuziya va termik ishlov berish jarayonlarida qanday ta'sir ko'rsatganini tushunishga yordam beradi. Nikelning polikristall kremniyga integratsiya jarayonida yuzaga kelgan mikrostruktura o'zgarishlari ham kuzatiladi, bu esa jarayonning samaradorligini baholashda yordam beradi. Nikel atomlari polikristall kremniyda diffuziya qilganda, ular to'plamlar yoki klasterlar hosil qilishlari mumkin. SEM orqali bu klasterlarning kattaligi, shakli va taqsimlanishini ko'rish mumkin. Klasterlarning o'lchamlari va taqsimlanishi nikelning kremniy yuzasiga qanday ta'sir qilgani va ularning elektr-fizik xususiyatlariga qanday ta'sir ko'rsatishini aniqlashda muhim rol o'ynaydi. Nikel kirishma atomlari polykristall kremniyi elektrofizik parametrlariga tasirini o'rganish uchun C-V metodida o'lchov amalga oshirildi. Buning uchun nikel kirishma atomlari bo'lgan va nikelsiz namunalar bir xil jarayonlardan o'tdi. C-V metodini amalga oshirish uchun polykristall kremniy namunalariga Au metal – yarimo'tkazgich kontakti xosil qilindi. Nikel kirishma atomlari bo'lмаган va 1000 °C da diffuziya qilingan **n-tip** polikristall kremniy namunalarining yuzasiga oltin qoplashni amalga oshirildi, bu Shottky diodi hosil qiladi. Shottky diodining elektr-xususiyatlarini tahlil qilishda C-V (Sig'im-Volt) o'lchash usuli muhim ahamiyatga ega. **C-V o'lchash** esa, Shottky diodining zaryad tashuvchilari va qo'shimcha potentsial bo'shilqlarini tahlil qilishda ishlataladi. Shottky diodining ishlash samaradorligini va imkoniyatlarini baholashga yordam beradi. C-V o'lchash, materialning sifatini va unga ta'sir qilgan diffuziya va termik ishlov berish jarayonlarining samaradorligini to'liq baholashda muhim rol o'ynaydi.



1-Rasm. Polykristall kremniy namunalarda o'tkazilgan C-V o'lchashlar natijasi. (S1 - nikel kirishma atomlari bo'lмаган namuna. S2 – nikel kirishma atomlari bilan ligerlangan namuna.)

S1 Namunaning sig‘imi katta, lekin egri chiziqli shakli defektlar yoki interfeysdagi nuqsonlar haqida dalolat beradi. Sig‘im yuqori bo‘lishi mumkin, ammo defektlar va zaryad tuzoqlari mavjudligi bu materialni yaxshi sifatli deb hisoblashga to‘sinqlik qiladi.

S2 Namunaning sig‘imi kichik, lekin kuchlanish bo‘yicha o‘zgarishning kichikligi, materialda bir xil zaryad taqsimlanishi va kam defektlar mavjudligini ko‘rsatadi. Bu material yaxshi sifatga ega deb baholanishi mumkin, chunki interfeys barqaror va zaryad tashuvchilar taqsimlanishi bir xil. Zaryad tuzoqlari interfeysda kapasitansning sezilarli o‘zgarishiga olib keladi. Tuzoqlar soni quyidagicha hisoblanadi:

$$N_t = \frac{(C_{max} - C_{min})}{qA}$$

C_{max} - Kuchlanishning nol qiymatida o‘lchangan maksimal kapasitans.

C_{min} -Katta kuchlanishlarda o‘lchangan minimal kapasitans.

q- Elektron zaryadi.

A-Shottki diodining maydoni.

N_t – Namunalar yuzasidagi tuzoqlar konsentratsiyasi.

2-jadval

Namuna	C_{max}	C_{min}	q	A	N_t
S1	$2.6 \times 10^{-12} F$	$1.4 \times 10^{-12} F$	$1.6 \times 10^{-19} C$	$0.8 \times 10^{-6} m^2$	$1.1 \times 10^{13} m^{-2}$
S2	$1.3 \times 10^{-12} F$	$1 \times 10^{-12} F$	$1.6 \times 10^{-19} C$	$0.8 \times 10^{-6} m^2$	$0.23 \times 10^{13} m^{-2}$

Xulosा.

1. Nikel kirishma atomlari asosan polikristall kremniy donalararo chegaralarda to‘planadi, bu esa materialning elektr xususiyatlarini boshqarishda muhim rol o‘ynaydi.

2. C-V o‘lchov natijalari shuni ko‘rsatadi, nikel kiritilgan namunalarning sifati nikel kiritilmagan namunalar bilan solishtirganda sezilarli darajada yaxshiroq.

3. Nikel diffuziyasi natijasida polikristall kremniy yuzasidagi mikrodefektlar va nuqsonlar kamayadi, bu esa materialning samaradorligini oshiradi.

4. Nikel kiritish jarayoni polikristall kremniyning o‘tkazuvchanligi va elektr-parametrlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatib, fotovoltaik va elektron moslamalar uchun sifatli material olishga yordam beradi.

Adabiyotlar

- Алферов Ж.И., Андреев В.М., Румянцев В.Д. Тенденции и перспективы развития солнечной фотоэнергетики. Физика и техника полупроводников. -Санкт-Петербург: Россия. 2004. Том 38, №8, -С. 937-948.
- Болтакс Б.И. Диффузия в полупроводниках. –Москва: «ФИЗМАТГИЗ». 1961.-С. 264-288.
- BakhadyrkhanovaM.K., IsamovS.B., KenzhaevZ.T., Koveshnikov S.V. Studying the Effect of Doping with Nickel on Silicon-Based Solar Cells with a Deep p – n -Junction. Technical Physics Letters, 2019, vol. 45, № 10, -P. 959–962.
- Грибов Б.Г., Зиновьев К.В. Новые технологии получения поликристаллического кремния для солнечной энергетики. Издательство вузов, Электроника, -Т. 2, № 3, -С. 10-17.2008.
- Fenning D.P., Zuschlag A.S., Bertoni M.I., Lai B., Hahn G., Buonassisi T. Improved iron gettering of contaminated multicrystalline silicon by high-temperature phosphorus diffusion, J. Appl. Phys. 113. 2013.
- McHugo S.A., Thompson A.C., Mohammed A., Lamble G., Perichaud I., Martinuzzi S., Werner M., Rinio M., Koch W., Hoefs H. U. and Haessler C. 2001. Nanometer-scale metal precipitates in multicrystalline silicon solarcells, Journal of Applied Physics, 89 (8), 4282-4288.
- Ismaylov K.A., Kenjayev Z.T. The factors influencing to the efficiency using of photoconversions. // Vestnik, KKOANR. Uz, 2017, № 3, -P.11-14.

REZYUME. Ushbu ishning maqsadi nikel atomlari polikremniyning xususiyatlariga ko‘rsatadigan ta’sir mexanizmlarini aniqlash va tahlil qilishdan iborat. Nikel kirishma atomlarini polykristall kremniyga 1000, diffuziya qilinib nikel klasterlarni tarkibi skannerlovchi elektron mikroskoplarda o‘rganildi. Polikristall kremniyga nikel kiritishning elektr-fizik parametrlariga ta’siri o‘rganildi va nikel kirishma atomlari klasterlarning hajmi va tarkibi o‘rganildi. Tadqiqotda C-V metodidan foydalanilib nikel kirishma atomlari mavjud bo‘limgan va nikel kirishma atomlari bilan ligerlangan namunalarning elektrofizik parametrlari o‘lchandi va solishtirildi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, nikel kiritish polikristall kremniy material sifatini yaxshilashi aniqlandi.

РЕЗЮМЕ. Цель данной работы – определить и проанализировать механизмы влияния атомов никеля на свойства поликремния. На поликристаллический кремний было нанесено 1000 атомов никеля и исследован состав кластеров никеля с помощью сканирующих электронных микроскопов. Изучено влияние добавления никеля к поликристаллическому кремнию на электрофизические параметры, изучен размер и состав кластеров атомов никеля. Электрофизические параметры образцов без атомов никеля и лигированных с атомами никеля определены методом С-В. измерил и сравнил. Результаты показали, что введение никеля способствует улучшению качества поликристаллического кремниевого материала.

SUMMARY. The aim of this work is to determine and analyze the mechanisms of the influence of nickel atoms on the properties of polysilicon. 1000 nickel atoms were deposited on polycrystalline silicon and the composition of nickel clusters was studied using scanning electron microscopes. The effect of adding nickel to polycrystalline silicon on the electrophysical parameters was studied, the size and composition of nickel atom clusters were studied. The electrophysical parameters of samples without nickel atoms and doped with nickel atoms were determined by the C-V method. measured and compared. The results showed that the introduction of nickel helps to improve the quality of polycrystalline silicon material.

ОЦЕНКА ВЛИЯНИЯ ВЫБРОСОВ АВТОТРАНСПОРТНЫХ СРЕДСТВ В ОКРУЖАЮЩУЮ СРЕДУ В РЕСПУБЛИКЕ КАРАКАЛПАКСТАН

С.А.Казбеков – самостоятельный соискатель

Каракалпакский научно-исследовательский институт естественных наук

К.Д.Реймов – доктор философии по техническим наукам, доцент

Нукусский государственный педагогический институт имени Ажинияза

Таянч сўзлар: эмиссия, автотранспорт, атроф-муҳит, Қоракалпогистон, таъсирни баҳолаш.

Ключевые слова: выбросы, автотранспорт, окружающая среда, Каракалпакстан, оценка влияния.

Key words: emissions, motor transport, environment, Karakalpakstan, impact assessment.

В настоящее время выбросы автотранспортных средств представляют собой выбросы вредных веществ в атмосферу из выхлопных газов автомобильных двигателей. Эти выбросы включают в себя оксиды углерода, азота, серы, твердые частицы и другие вредные соединения. Они являются одной из основных причин загрязнения воздуха в городах и на шоссе, а также оказывают негативное воздействие на окружающую среду и здоровье человека [2, 6]. Выбросы автотранспорта имеют прямое отношение к проблемам, таким как изменение климата, кислотные дожди, загрязнение воздуха и проблемы здоровья, такие как астма, рак и другие заболевания [4, <https://studopedia>].

Для Республики Каракалпакстан проблема выбросов автотранспорта представляет особую актуальность из-за ряда факторов. В южных районах, где может быть более плотное автомобильное движение из-за наличия крупных городов или торговых пунктов, выбросы автотранспорта могут привести к ухудшению качества воздуха, проблемам с здоровьем у местных жителей и негативному воздействию на окружающую среду, включая растительный и животный мир [7].

В результате проведенного исследования было установлено, что выбросы автотранспортных средств оказывают негативное воздействие на окружающую среду Северных и Южных районов Республики Каракалпакстан. Основными источниками выбросов являются выхлопные газы и отработанные масла, которые содержат вредные вещества, такие как оксиды азота, угарный газ и свинец [6]. Уровень выбросов зависит от природно-климатических факторов, технического состояния агрегатов (отключение регулировочных параметров от допустимых в результате износа и неисправности систем) и др. Влияние количества автотранспортных средств на загрязнение придорожной зоны можно оценить интенсивностью движения транспортного потока.

Исследованиями установлено, что природно-климатические факторы, такие как температурный режим, влажность воздуха, почвенно-растительные условия, скорость ветра, рельеф местности имеют возможность способствовать ослаблению или усилинию действия техногенного воздействия на окружающую среду. Отметим, что климатические условия местности в сезонных аспектах могут повлечь за собой некоторые изменения дорожных условий, колебания которых во времени приводят к вариации скорости движения транспортного потока, что

оказывает влияние на выбросы вредных веществ [7]. Нашиими исследованиями показано, что по Северным районам Республики Каракалпакстан показатели среднегодовой температуры воздуха за период с 2019-2024 гг. находились на устойчивом уровне (от 12,3⁰C – 13,9⁰C). Самые минимальные величины были зафиксированы в 2021 и в 2024 гг. (рис.1).




Рис.1. Динамика среднегодовых показателей температуры воздуха по северным районам Республики Каракалпакстан

Анализ показал, что по Южным районам Республики Каракалпакстан показатели среднегодовой температуры воздуха за период с 2019-2024 гг. были выше по сравнению с северными районами и также находились на стабильном уровне (от 14,6⁰C – 15,5⁰C) (рис.2). При более высокой температуре возникает большее количество окислений соединений азота, что приводит к образованию большего количества оксидов азота в выхлопных газах [6, 7].




Рис. 2. Динамика среднегодовых показателей температуры воздуха по южным районам Республики Каракалпакстан

Проведенный сравнительный анализ показателей относительной влажности воздуха по северным и Южным районам показал, что уровень влажности был намного выше в Северных районах Каракалпакстана (рис.3).




Рис.3. Динамика среднегодовых показателей относительной влажности по различным районам Республики Каракалпакстан

По Северным районам наибольшие величины наблюдались в 2019 и в 2022 гг., а по Южным районам наиболее высокие показатели зафиксированы в 2019 и 2024 гг. Осадки и высокие температуры способствуют интенсивному разложению токсичных веществ (рис.4).




Рис.4. Динамика среднегодовых показателей количества осадков по северным и южным районам Республики Каракалпакстан

Литература

- Ашитова Н.Ж., Сарбасов А.С., Шакиров Б.С., Жолдасбекова Н.Ш. Факторы, влияющие на городскую экосистему. // Научно-технический журнал министерства образования и науки РК «Промышленность Казахстана» - Алматы: 2010.- С. 35-37.
- Домуладжанов И.Х., Холмирзаев Ю.М., Домуладжанова Ш.И. Воздействие на окружающую среду автозаправочной станции. // Universum: технические науки, 2020. № 4-2 (73).- С. 44-47.
- Дрябжинский О.Е., Гапоненко А.В. Перспективы развития автотранспорта под влиянием экономического и экологического факторов // Научно-методический электронный журнал Концепт. 2016. Т. 11. -С. 2776-2780.
- Проектный документ «Проект содействия развитию потенциала Фонда мелиоративного улучшения орошаемых земель», ПРООН. –Ташкент: 2009. –С.63.
- Распространение и трансформация автомобильных выбросов в атмосфере. <https://studopedia.info/6-35034.html> (дата обращения 21.09.2021)
- Соколов А.К., Беляев С.В. Методика расчета предельно допустимых выбросов газов SO2 и NO2, с учетом частичной суммации их вредного действия. // Вестник Ивановского государственного энергетического университета, 2017. № 2.- С.27-33.
- Чомаева М.Н. Автомобильный транспорт как загрязнитель атмосферы и экологическая обстановка // Национальная безопасность и стратегическое планирование. 2016. № 2-1 (14). -С. 113-115.

РЕЗЮМЕ. Мақолада Қарақалпогистон Республикасида автотранспорт чиқиндилирининг атроф-мухитга таъсирини баҳолаш масалалари кўриб чиқилади. У ҳаво ва тупроқ ифлосланишининг асосий манбаларини, шунингдек уларнинг экотизим ва инсон саломатлигига таъсирини кўриб чиқади. Ҳароратнинг ошиши атмосфера-нинг кенгайишига ва ҳаво ҳажмининг ошишига олиб келади, бу эса ифлосланишнинг тарқалишига ёрдам беради. Топилмаларчиқиндилиарни камайтириш ва атроф-мухит сифатини яхшилаш бўйича аниқ чора-тадбирларни ишлаб чиқиш учун ишлатилиши мумкин.

РЕЗЮМЕ. В статье рассматриваются вопросы оценки влияния выбросов автотранспортных средств на окружающую среду в Республике Каракалпакстан. В ней рассматриваются основные источники загрязнения воздуха и почвы, а также их воздействие на экосистему и здоровье людей. Повышение температуры приводит к расширению атмосферы и увеличению объема воздуха, что способствует распространению загрязнений. Полученные результаты могут быть использованы для разработки конкретных мер по сокращению выбросов и улучшению качества окружающей среды.

На протяжении суток могут происходить изменения направления и скорости ветра, что может влиять на концентрацию загрязнения. Атмосферные потоки могут способствовать перемещению загрязнений на высотах, что осложняет их удаление из атмосферы (рис.5).




Рис. 5. Динамика среднегодовых показателей скорости ветра по северным и южным районам Республики Каракалпакстан

Таким образом, проведенное исследование позволяет сделать вывод, что выбросы автотранспортных средств имеют значительное отрицательное воздействие на окружающую среду Северных и Южных районов Республики Каракалпакстан, и необходимы срочные меры для их снижения и контроля.

SUMMARY. The article discusses the issues of assessing the impact of vehicle emissions on the environment in the Republic of Karakalpakstan. It examines the main sources of air and soil pollution, as well as their effects on the ecosystem and human health. An increase in temperature leads to an expansion of the atmosphere and an increase in air volume, which contributes to the spread of pollution. The results obtained can be used to develop specific measures to reduce emissions and improve environmental quality.

2D O'LCHAMLI P-N-O'TISHNING O'TA YUQORI CHASTOTALI MAYDON TA'SIRIDA O'ZGARISHI

M.O.Kosimova – fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori

A.S.Maxmudov – tayanch doktorant

Namangan muhandislik qurilish instituti

Tayanch so'zlar: 2D o'lchamli p-n-o'tish, kvant sig'imi, O'YUCH maydon, oksid sig'imi, bir qatlamlili MoS₂.

Ключевые слова: 2D-размерный p-n-переход, квантовая плотность, поле сверхвысокой частоты поле, оксидная плотность, однослойная поверхность ферми квантовой плотности MoS₂.

Key words: 2D-dimensional p-n junction, quantum density, microwave field, oxide density, single-layer Fermi surface quantum density MoS₂.

Kirish. So'ngi yillarda, turli xil ikki o'lchovli (2D) nanomateriallarni ko'plab texnikalar orqali sintez qilish va ishlab chiqarishga katta e'tibor qaratilmoqda [1-2].

Odatda, u fotovoltaik qurilmalarda, yarimo'tkazgichli qurilmalarda, superkondensatorlar uchun elektrodlarda va suvni tozalashda qo'llaniladi [1]. Asosan, elektronika da ishlatiladigan 2D materiallar, shuningdek, elektron qurilmalarni ishlab chiqarish [3].

[5] ishda metall o'tishli dixalkoginit ikki o'lchamli yarimo'tkazgichli qurilmalarda kvant sig'imi hamda maydonlarning yuqori chiziqli zichligining tashuvchi statistikasiga ta'siri tadqiq qilingan va tajriba ma'lumotlari bilan taqqoslangan. Bu ishda 2D o'lchamli yarimo'tkazgichlardagi xarakatchan zaryad tashuvchilarining dispersiya E-k xolati o'tkazuvchanlik zonasining tubida va valent zonaning yuqorisida birinchi Brillion zonasi parabolik yaqinlashish bilan topiladi: $E(k) = \hbar^2 k^2 / 2m^*$ bunda, \hbar - Plank doimisi, m^* - effektiv massa va $k = \sqrt{k_x^2 + k_y^2}$ - 2D tekislikdagi to'lqin vektori. Holatlar zichligi $g(E) = g_s g_v m^* / 2\pi\hbar^2$ ifoda bilan aniqlanadi. Bunda, g_s va g_v mos ravishda spin va degeneratsiya faktorlari. O'tkazuvchanlik va valent zonalaridagi 2D zaryad tashuvchilarining konsentratsiyasi

$$n = \int_{E_c}^{\infty} g(E) f(E) dE \text{ va } p = \int_{-\infty}^{E_v} g(E) (1 - f(E)) dE \quad (1)$$

kabi aniq tasvirlangan [4], bu yerda, E_c va E_v mos ravishda o'tkazuvchanlik va valent zonasi energiyalari. To'ldirish extimolligi – bu Fermi – Dirak taqsimot funksiyasıdir:

$$f(E) = 1 / (1 + \exp((E - E_f) / kT)) \quad (2)$$

Bunda, E_v - Fermi energiyasi. Yuqoridagi tenglamalardan o'tkazuvchanlik zonasidagi elektronning konsentratsiyasi:

$$n = g_{2D} k T \ln(1 + \exp((E_f - E_c) / kT)) \quad (3)$$

va valent zonadagi kovaklar konsentratsiyasi:

$$p = g_{2D} k T \ln(1 + \exp(-(E_f - E_v) / kT)) \quad (4)$$

ifodalarini topish mumkin. Bu yerda elektron va kovaklarning effektiv massalari bir xil deb faraz qilingan. Termodinamik muvozanat shartida n-tipli metall o'tishli dixalkogonitlarda Fermi energiyasi


$$E_f - E_c = k T \ln(\exp(n/g_{2D} kT) - 1) \quad (5)$$

p-tipli uchun esa

$$E_v - E_f = k T \ln(\exp(p/g_{2D} kT) - 1) \quad (6)$$

ga teng bo'ladi.

1-rasmida 2D o'lchamdagagi turli zaryad tashuvchilar konsentratsiyasidagi bir qatlamlili MoS₂ uchun Fermi satxining haraoratga bog'liqligi ko'rsatilgan.



1-rasm. 2D o'lchamdagagi turli zaryad tashuvchilar konsentratsiyasidagi bir qatlamlili MoS₂ Fermi satxi ning haraorat funksiyasi [5].


Bunda, qizil chiziqlar n - tipli va ko'k chiziqlar p - tipli yarimo'tkazgich qatlamlar uchun chizilgan. Gorizontallpunktir chiziqlar esa xususiy MoS₂ uchun taxmin qilinganidek simmetrik qoladi. Bir qatlamlili metall o'tishli dixolkoginitlar uchun elektronning effektiv massalari: MoS₂ uchun $m_e \approx 0.57 m_0$, MoSe₂ uchun $m_e \approx 0.6 m_0$, MoTe₂ uchun $m_e \approx 0.61 m_0$ ga teng bo'ladi. 1-rasmida zaryad tashuvchilar statistikasi xona haroratida juda uzoq vaqt davomida generatsiyalanib qoladi. Zaryad tashuvchilar konsentratsiyasi $10^{11} - 10^{13} \text{ cm}^{-2}$ qiymatlarida Fermi satxiga deyarli kirmaydi. Yuqori haroratlarda esa yarimo'tkazgich chiziqlararo termal qo'zg'алиш tufayli zaryad tashuvchilar o'ziga xos bo'ladi. 2D kristall yarimo'tkazgichlar uchun xususiy zaryad tashuvchilar konsentratsiyasi (n_i) quyidagicha aniqlanadi:

$$n_i = n = p = g_{2D} k T \ln \left(1 + \exp \left(-\frac{E_0}{kT} \right) \right) \quad (7)$$

Bu yerda, $E_0 = E_g / 2$, E_g – taqiqlangan zona kengligi. Bir qatlamlı MoS_2 uchun $E_g = 1.8 eV$ ga teng. Agar ikki o'lchamli yarimo'tkazgichlar uchun $E_0 >> kT$ shart bajarilsa, xususiy zaryad tashuvchilar konsentratsiyasi

$$n_i \approx g_{2D} k T \exp(-E_g / 2kT) \quad (8)$$

formula bilan aniqlanadi. Bir qatlamlı MoS_2 uchun xona temperaturasida $n_i \sim 1.1 \cdot 10^{-2} \text{ cm}^{-2}$ ga teng bo'ladi [5].



2-rasm. Kvant sig'imi funksiyasi sifatida 77 va 300K haroratdagi elektrostatik potensial. Elektrostatik sig'im 3nm va 30nm li HfO_2 hamda 300nm SiO_2 maydon birligi uchun adabiyotlarda quyidagicha ko'rsatilgan. C_{dq} - C_q ning degeneratsiya chegarasi [5].

Tadqiqot metodologiyasi.

Zaryad tashuvchining konsentratsiyasi va Fermi satxini yarimo'tkazgichli maydoniy tranzistorlarda kirish kuchlanishi (gate voltage) yordamida boshqariladi. Bir qatlamlı MoS_2 ichki kanaliga musbat kirish kuchlanishi ulanganda o'tkazuvchanlik zonasini elektronlar bilan to'ldiradi, natijada Fermi satxi o'tkazuvchanlik zonasini tomon suriladi. Bir qatlamlı MoS_2 dagi elektron konsentratsiyasini elektrostatik potensialga bog'liqlik ifodasi quyidagi munosabatdan topiladi [5].

$$n_{2D} = g_{2D} k T \ln \left(1 + \exp \left(-\frac{(E_0 - eU_{ch})}{kT} \right) \right) \quad (9)$$

Bunda, U_{ch} - elektrostatik potensial. 2D o'lchamdagı Bir qatlamlı MoS_2 umumiyliz zaryad zichligi elektron va kovaklar zichligini muvozanatlash orqali olinadi $Q_{ch} = q(p_{2D} - n_{2D})$. Kanal potensiali o'zgarishiga nisbatan umumiyliz zaryad kabi kvant sig'imi ham osongina olinadi.

$$C_q = - \frac{dQ}{dU_{ch}} \quad (10)$$

Differensiallash va soddalashtirishlardan so'ng bu ifodani quyidagicha yozish mumkin:

$$C_q = q^2 g_{2D} \left\{ \left[1 + \exp \left(\frac{E_0 - qU_{ch}}{kT} \right) \right]^{-1} + \left[1 + \exp \left(\frac{E_0 + qU_{ch}}{kT} \right) \right]^{-1} \right\} \quad (11)$$

Bu ifodadan quyidagi tenglikka ega bo'lamiz:

$$C_q \approx q^2 g_{2D} \left[1 + \frac{\exp(E_g / 2kT)}{2 \cosh(qU_{ch} / kT)} \right] \quad (12)$$

2 – rasmda hona xaroratida va 77K da hisoblangan bir qatlamlı MoS_2 kvant sig'imi U_{ch} ning funksiyasi sifatida ko'rsatilgan. Rasmda ichki qatlAMDAGI Fermi satxining joylashishi ham tasvirlangan. Elektrostatik parallel plastinka sig'imi C_{ox} metall o'tishli dihalgoginet va maydonli tranzistorlar uchun kirish oksidi (gate oxide) sifatida doimiy ishlatalidigan 2 ta diyelektrik: HfO_2 va SiO_2 lar uchun ko'rsatilgan. $|qU_{ch}| > E_0$ bo'lganda Fermi satxi o'tkazuvchanlik yoki valent zonasiga va degeneratsiya (rekombinatsiya) chegarasiga yaqin joylashganda kvant sig'imi to'yinganlik xolatida bo'ladi. Bunda: $C_q = C_{dq} = q^2 g_{2D}$. 2-rasmda diyelektrik xolatlar bilan ko'rsatilganidek generatsiyalangan zonaning ko'p qismi uchun $C_q << C_{ox}$. 3nm li diyelektriklar HfO_2 uchun degeneratsiya chegarasi C_{dq} bilan C_{ox} ni solishtirish mumkin. Kvant sig'imi maydon ta'sirida sezilarli o'zgarishi mumkin.

Biroq, yuqorida keltirilgan tadqiqotlarda 2D o'lchamli metall o'tishli dixalgoginitlar kvant sig'imining tashqi ta'sirlar natijasida o'zgarishini nazariy jixatdan o'rganilmagan.

Ishning maqsadi, 2D o'lchamli metall o'tishli dixalgoginitlar kvant sig'imining tashqi ta'sirlar natijasida o'zgarishini nazariy jixatdan tushuntirib berishdan iborat.


Tahsil va natijalar.

2D o'lchamdagı bir qatlamlı MoS_2 kvant sig'imining O'YUCH maydon ta'siri.

2D o'lchamdagı bir qatlamlı MoS_2 kvant sig'imi quyidagi ifoda bilan aniqlanadi:

$$C_q \approx q^2 g_{2D} \left[1 + \frac{\exp(E_g / 2kT)}{2 \cosh(qU_{ch} / kT)} \right] \quad (13)$$

Ushbu ifodadan foydalanib, 2D o'lchamdagı bir qatlamlı MoS_2 kvant sig'imining elektrostatik potensialga bog'liqlik grafigini olish mumkin (3-rasm).



3-rasm. 2D o'lchamdagı bir qatlamlı MoS_2 kvant sig'imining elektrostatik potensialga bog'liqligi.

2D o'lchamdagı bir qatlamlı MoS_2 kvant sig'imi O'YUCH maydon ta'sir ettirib, buning natijasida elektron va kovaklar qizishini hisobga olgan holda (26) ifoda ko'rinishini quyidagicha yozish mumkin:

$$C_q \approx q^2 g_{2D} \left[1 + \frac{\exp(E_g / 2kT)}{2 \cosh(q(U_{ch} + U) / kT)} \right] \quad (14)$$

O'YUCH maydon ta'sirida elektron va kovaklarning qizishi asosiy va asosiy bo'lмаган зaryad tashuv-

chilarning injeksiya toklari $e^{-\frac{e\varphi}{kT_e}}$, $e^{-\frac{e\varphi}{kT_h}}$ ko'rinishda


harorat ortishi bilan ortib boradi, bundan tashqari, p-n o'tish potensial to'sig'i tashqi O'YUCH maydon ta'sirida davriy ravishda o'zgarib turadi. Hosil bo'lgan

injeksiya toklari $e^{-\frac{e(\varphi_0+U \cos\omega)}{kT_e}}$, $e^{-\frac{e(\varphi_0-U \cos\omega)}{kT_h}}$

ko'rinishni oladi. Bu yerda $U_1 = \int \vec{E}_1 dx$, p-n o'tishga tushayotgan elektromagnit to'lqining p-n o'tish tekisligiga perpendikulyar tashkil etuvchisi. Bu esa o'z navbat-

ida $e^{\frac{e\bar{U}_1}{kT_e}} = \frac{1}{2\pi} \int_0^{2\pi} e^{\frac{eU_1 \cos\omega}{kT_e}} d\omega$ o'rtacha tokni

oshishiga sabab bo'ladi [6-10]. p-n o'tishli dioddarda qizish va to'g'rlanish natijasida rekombinatsiya toklarini ortadi. O'YuCh to'lqin energiyasining bir qismi erkin elektron va kovaklar haroratini ortiradi. Bunda elektromagnit to'lqin energiyasi elektron va kovaklar gazining kinetik energiyasiga aylanadi. Qizigan elektron va kovaklar potensial to'siqdan o'tib, rekombinatsiya toklarini ortishiga sharoit yaratadi natijada p-n o'tish EYUK manbaiga aylanadi. Bunda O'YUCH maydon energiyasi hisobiga diod o'zgarmas EYUK hosil qiladi. Qolgan ortiqcha energiya atrof muhitga issiqlik ko'rinishda beriladi. O'YUCH maydon energiyasi rekombinatsiya toklarini hosil qilish uchun sarflanadi. O'YUCH maydon ta'sirida ya'ni $T_e, T_h > T$ bo'lganda kvant sig'imi (27) ifodaga ko'ra ortadi (7-rasm).



4-rasm. O'YUCH maydon ta'siridagi bir qatlamlı MoS₂ kvant sig'imining elektrostatik potensialga bog'liqligi.

4-rasmida O'YUCH maydon ta'siridagi bir qatlamlı MoS₂ kvant sig'imi elektrostatik potensial funksiyasi hamda, elektrostatik parallel plastinka sig'imi C_{ox} metall o'tishli dihalgoginet va maydonli tranzistorlar uchun kirish oksidi (gate oxide) sifatida doimiy ishlataladigan 2 ta diyelektrik: HfO₂ va SiO₂ lar uchun ko'rsatilgan. Rasmdan ko'rinish turibdiki, O'YUCH maydon ta'sirida C_q Fermi satxiga mos ravishda ortib boradi.

Xulosa. O'YUCH maydon ta'sirida bir qatlamlı MoS₂ kvant sig'imi Fermi satxiga mos ravishda ortib boradi. Oksid sig'imi deyarli o'zgarmaydi, chunki u faqat oksid qatlami fizik xossalariiga bog'liq. Biroq, juda yuqori maydonlar ostida diyelektrik buzilish yoki defektlar oksid sig'imi o'zgartirishi mumkin. 2D materiallarda kvant sig'imining yuqori qiymati tranzistorlarning ishlash tezligi va sezgirligini oshiradi. Oksid sig'imi esa materialning elektr maydon ostida chidamliligini aniqlaydi.

Adabiyotlar

1. Y. Pan, et al. Construction of 2D atomic crystals on transition metal surfaces: graphene, silicene, and hafnene <http://dx.doi.org/10.1002/smll.201303698> Small, 10 (11) (2014), pp. 2215-2225
2. S.B. Mitta, et al. Electrical characterization of 2D materials-based fiyeld-effect transistors 2D ater., 8 (1) (2021), <https://iopscience.iop.org/article/10.1088/2053-1583/abc187>
3. Gulyamov G., Shahobiddinov B. (2022). EFFECT of LIGHT on VOLT-AMPERE CHARACTERISTICS of p-n JUNCTION. Web of Scientist: International Scientific Research Journal, 3(10), 314–318. <https://doi.org/10.17605/OSF.IO/GNSP9>.
4. Gulyamov G., Dadamirzayev M. G., Kosimova M. O. COMPARISON OF PARAMETERS OF TWO-DIMENSIONAL (2D) AND THREE-DIMENSIONAL (3D) PN-JUNCTION DIODES //Romanian Journal of Physics. – 2023. – T. 68. – S. 603.
5. Gulyamov G. et al. Influyencye of deformation and light on the diffusion capacity and differential resistancye of the pn junction of a strong electromagnetic fiyeld //AIP Conference Proceedings. – AIP Publishing, 2023. – T. 2700. – №. 1.
6. COMPARISON OF 2D AND 3D P-N JUNCTION DIFFERENTIAL CONDUCTANCY AND DIFFUSION CAPACITANCY Dadamirzayev M.G., Kosimova M.O., Boydidayev S.R., Makhmudov A.S. East European Journal of Physics., 2024, 2024(2), -P. 372-379
7. Effect of Variation of Non-ideal Ratio on Electrical Properties of P-N Junction in Strong Microwave Field, //Iranian Journal of Materials Science and Engineering- IJMSE 2024-21(4)-30-37 <http://dx.doi.org/10.22068/ijmse.3243>
8. Gulyamov G., Dadamirzayev G., Dadamirzayev M., Kosimova M. (2020).The influyencye of the microwave fiyeld on the characteristics of the pn junction. Euroasian Journal of Semiconductors Sciencye and Engineyering, 2(4), 7.

9. Dadamirzayev M. G., & Kosimova M. O. (2018). The effect of the variation of the electric field of the UHF waves on the CVC of the asymmetric pn-junction. *ISJ Theoretical & Applied Sciencye*, 10 (66), 401-405.
10. Gulyamov G., Erkaboyev U.I., Majidova, G.N., Qosimova, M.O., & Davlatov, A.B. (2015). New Method of Determining the Landau Levels in Narrow-Gap Semiconductors. *Open Journal of Applied Sciencyes*, 5(12), 771-775.
11. Gulyamov G. (2023). THE INFLUYENCYE OF DEFORMATION AND LIGHT ON THE PNJUNCTION IV CHARACTERISTIC IN AN ELECTROMAGNETIC FIELD. *Eur. Chem. Bull*, 12, S3.
12. Dadamirzayev M.G., Kosimova M.O., Boydedayev S.R., Makhmudov A. S. (2024). COMPARISON OF 2D AND 3D PN JUNCTION DIFFERENTIAL CONDUCTANCY AND DIFFUSION CAPACITANCY. *European Journal OF Physics*, 2, 372-379.
13. Dadamirzayev M., Kosimova M., Maxmudov A., Tursunov M. (2023). LIGHT POWER FACTOR ON THE CHARACTERISTICS OF TWO-DIMENSIONAL PN DIODES. *I PRIKLADNYYE PROBLEMY SOVREMENNOY FIZIKI FUNDAMENTAL AND APPLIED PROBLEMS OF MODERN PHYSICS*.

REZYUME. O'ta yuqori chastotali (O'YUCH) maydon ta'sirida bir qatlamlı MoS₂ kvant sig'imi Fermi satxiga mos ravishda o'zgarishi o'rganilgan. 2D materiallarda kvant sig'iming yuqori qiymati tranzistorlarning ishlash tezligi va sezgirligini oshirishga xizmat qilishi, hamda oksid sig'imi esa materialning elektr maydon ostida chidamliligini oshirishi ko'rsatilgan.

РЕЗЮМЕ. В данной статье изучено, как однослойная квантовая плотность MoS₂ изменяется в соответствии с уровнем Ферми под действием поля сверхвысокой частоты. В материалах работы показано, что в 2D-материалах более высокое значение квантовой плотности служит для увеличения скорости работы и чувствительности транзисторов, а оксидная плотность увеличивает долговечность материала под электрическим полем.

SUMMARY. It was studied how the single-layer quantum density of MoS₂ changes according to the Fermi level under the action of a microwave field. It was shown that in 2D materials, a higher quantum density value serves to increase the operating speed and sensitivity of transistors, and the oxide density increases the durability of the material under an electric field.

HOSILDORLIKNING SUV MIQDORIGA NISBATAN PROPORSIONALLIGINI ANIQLASH USULLARI

A.A.Qudaybergenov – doktorant, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti

B.B.Absamatov – assistent o'qituvchi

Q.Q. Elmuratov – stajyor o'qituvchi

M.S.Qudaynazarov – stajyor o'qituvchi

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti

Tayanch so'zlar: sug'orish, hosildorlik, suv, ekin, o'simlik, usul, model.

Ключевые слова: орошение, урожайность, вода, культура, растение, метод, модель.

Key words: irrigation, yield, water, crop, method, model.

Kirish. Qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligini suv miqdoriga nisbatan proporsionalligini aniqlash, suv resurslaridan samarali foydalanish va ekologik barqarorlikni ta'minlashda asosiy ahamiyatga ega. Suv - bu ekinlarning o'sishi va rivojlanishi uchun asosiy omil bo'lib, uning optimal miqdori hoslining sifati va miqdorini belgilaydi. Shuning uchun, hosildorlikning suv miqdoriga bog'liqligini matematik usullar yordamida aniqlash, zamonaviy qishloq xo'jaligining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasining iqlimi va tabiiy sharoitlarida hosildorlikning suv miqdoriga bog'liqligini tahlil qilish mahalliy ekinlarning suv talablarini aniqlash va suv resurslarini samarali foydalanish uchun muhimdir. Qoraqalpog'istonda kontinental iqlim hukm suradi. Yozda havo harorati +40°C gacha ko'tarilishi, qishda esa -20°C gacha pasayishi mumkin. Yod'ing'archilik miqdori yiliga 100-150 mm atrofida, bu esa ekinlar uchun yetarli emas. Tuproqlari asosan qumli va sho'rli bo'lib, suvni saqlash qobiliyati past. Shuning uchun sug'orish asosiy suv manbai hisoblanadi.

Sug'orish uchun asosan Amudaryo daryosidan foydalananadi. Suvning noaniq taqsimlanishi va sho'rланish muammolari mavjud.

Asosiy qism. Hosildorlik va suv miqdori o'rtasidagi bog'liqlik agronomik ma'lumotlar yoki eksperimental tadqiqotlar orqali aniqlanadi. Bu bog'liqliknini baholashning bir necha usullari mavjud.

1. Tajriba ma'lumotlari orqali tahlil.

Ma'lum bir ekin turi uchun suv iste'moli va hosildorligi haqida ma'lumotlar mavjud bo'lsa, u holda regressiya tahlili usuli orqali ularning bog'liqligini aniqlashimiz mumkin.

Agar hosildorlik suv miqdoriga nisbatan to'g'ri proporsional bo'lsa, u holda bog'liqlik chiziqli funksiya bo'ladi:

$$Y(x) = a \cdot x + b \quad (1)$$


Bu yerda x - suv miqdori (m^3/ga), $Y(x)$ - suv miqdoriga nisbatan hosildorilk (t/ga), a - hosildorlikning suvgaga nisbatan o'sish koefitsienti ($t/ga m^3$), b - boshlang'ich hosildorlik (suvsiz holda).

1-jadval. Suv miqdoriga nisbatan hosildordik

Suv miqdori (m^3/ga)	Hosildorlik (t/ga)
1000	2.5
2000	4.8
3000	6.9
4000	8.0
5000	8.5

1-jadvaldagagi ma'lumotlar asosida Python dasturlash tilida chiziqli regressiya usuli orqali hosildorlikning suvgaga nisbatan bog'liqligini quyidagicha aniqlaymiz:

```
import numpy as np
import matplotlib.pyplot as plt
from sklearn.linear_model import LinearRegression
# Suv miqdori ( $m^3/ga$ ) va hosildorlik (t/ga)
ma'lumotlari
x = np.array([1000, 2000, 3000, 4000,
5000]).reshape(-1, 1)
y = np.array([2.5, 4.8, 6.9, 8.0, 8.5])
# Chiziqli regressiya modelini o'rnatish
model = LinearRegression()
model.fit(x, y)
# Koeffitsientlarni aniqlash
a = model.coef_[0]
# Hosildorlikning suvgaga nisbatan o'sish koeffitsienti
b = model.intercept_ # Boshlang'ich hosildorlik
print(f'Hosildorlik formulasi: Y(x) = {a:.4f} * x + {b:.4f}')
# Grafik chizish
plt.scatter(x, y, color='blue', label="Tajriba
ma'lumotlari")
plt.plot(x, model.predict(x), color='red', label="Chiziqli model")
plt.xlabel("Suv miqdori ( $m^3/ga$ )")
plt.ylabel("Hosildorlik (t/ga)")
plt.legend()
plt.show()
```



1-rasm. Hosildorlikning suvgaga nisbatan chiziqli bog'liqligi.

Agar natijada R^2 koeffitsienti 0.9 yoki yuqori chiqsa, u holda hosildorlik suv miqdoriga proporsional deb hisoblash mumkin.

2. Nazariy (agronomik) modellar asosida baholash.

Agarda tajriba ma'lumotlari yo'q bo'lsa, agronomik modellardan foydalanishimiz mumkin. FAO (Food and

Agriculture Organization of the United Nations, Italy) tomonidan ekin hosilining suv iste'moli bilan bog'liqligi tahlil qilinib, nisbiy hosildorlikning pasayishini evapotranspiratsiya (ET)ning pasayishi bilan bog'lovchi CROWAT modeli taklif qilindi. Ayniqsa, hosildorlikning evapotranspiratsiyaga bog'liqligi quyidagicha ifodalananadi[1]:

$$Y_a = Y_{max} \cdot \left(1 - k_y \left(1 - \frac{ET_a}{ET_k} \right) \right), \quad (2)$$

bu yerda Y_a va Y_{max} - haqiqiy va maksimal hosildorlik (t/ga), ET_a va ET_k - haqiqiy va maksimal evapotranspiratsiya, k_y - ekinning suvgaga sezgirligi koeffitsienti.

Bu (2) tenglamani qishloq xo'jaligining barcha ekin turlariga qo'llash mumkin. k_y koeffitsienti ekinning suv iste'moli va hosildorlik o'rtasidagi murakkab bog'liqliklarni ifodalaydi. Bu munosabatning ahamiyati katta bo'lib, suv yetishmovchiligining hosildorlikka ta'sirini baholash uchun ishlab chiqilgan va bu usul keng qo'llanilmoqda.

k_y qiymatlari ekinning turiga va o'sish davriga qarab o'zgaradi:

- $k_y > 1$ bo'lsa, ekin suv yetishmovchilikga juda sezgir, suv yetishmasa hosildorlik kamayishi katta bo'ladi;

- $k_y < 1$ bo'lsa, ekin suv yetishmovchiliga nisbatan chidamli bo'lib, hosildorlikning pasayishi kam bo'ladi;

Atmosferada, suvda va quruqlikda portlatilgan yadroviy bombalardan radioaktiv moddalar chiqarilishining oqibatlari kelajakda atrof-muhit holatiga ham salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlariga ko'ra atmosfera havosini ifloslovchi 46600 dan ortiq transport vositalari va 6700 dan ortiq ishlab chiqarish korxonalar mavjud bo'lib, ulardan yiliga o'rtacha 320,0 ming t dan ortiq turli zararli moddalar atmosferaga chiqariladi. Shundan 212,4 ming t si ishlab chiqarishga, 108,2 ming t xarakatlanuvchi manbalarga to'g'ri keladi.

Atmosfera havosini ifloslovchi asosiy sanoat korxonalariga quyidagilarni misol qilib ko'rsatish mumkin: 1. Muborak gazni qayta ishlash zavodi (55 ming t); 2. Muborak gaz konlari unitar sho'ba korxonasi (5 ming t); 3. Sho'rtan neft-gaz unitar sho'ba korxonasi (70 ming t); 4. Sho'rtan gaz kimyo majmuasi (15 ming t); 5. Muborak issiqlik elektr markazi (10 ming t). Bu obyektlardan atmosfera havosiga chiqadigan turli zaharli moddalar havza atmosferasiga chiqariladigan ifloslovchi moddalarning 65% ni tashkil etadi (1-jadvalga qarang).

1-jadval. Atmosferaga chiqarilgan iflosantiruvchi moddalar, t hisobida

Hududlar / yillar	Respublika bo'yicha	Qashqadaryo
2009	691,9	127,8
2009	691,9	127,8
2009	691,9	127,8
2009	691,9	127,8
2009	691,9	127,8
2009	691,9	127,8
2009	691,9	127,8
2009	691,9	127,8
2009	691,9	127,8
2009	691,9	127,8

*jadval viloyat statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Atmosfera havosining ifloslanishi Kitob, Shahrisabz, Qarshi va Muborak postlaridan olingan ma'lumotlarga tayaniqdir. Atmosfera havosining ifloslanishida sanoat

va avtotransport chiqindilari muhim o'rinn tutadi. Eng ko'p chiqindi sanoatga to'g'ri keladi (57,4%), avtotransportga esa (42,6%) to'g'ri keladi. Shaharlар havosining ifloslanishiga ko'ra ajralib turadigan alohida shaharlarga sanoat shaharlari kiritilgan. Jumladan, Qarshi, Koson, Muborak va Nuriston sanoat shaharlari bo'lganligi uchun ularning havosi chang, fitorli vodorod, oltingugurt gazi, uglerod va vodorod oksidlari, kichik shaharlар (tumanlar markazlari) havolari chang, uglerod va azot oksidlari bilan ifloslanishi ko'rsatilgan. Qarshi shahrida yengil avtomobilarning 70% dan ko'pi gaz yoqilg'isiga o'tganligi munosabati bilan atmosfera havosi ancha tozalanganligi hamda chang, ammiak, fenol, fitorli vodorod, uglerod va azot oksidlarinin o'rtacha ko'rsatgichi REM dan oshmag'anligi qayd etilgan.

Neft va gaz sanoati ekologik xavfli sohalardan biridir. Quduqlarni burg'ulash, xom ashyoni qazib olishda, tayyor mahsulot ishlab chiqarishda turli kimyoviy reagentlar, shuningdek, texnologik jarayon vaqtida ishlab chiqarilgan uglevodorodlar hamda ularning aralashmalari o'simlik va hayvonot dunyosiga, shuningdek insonlarga salbiy ta'sir ko'rsatishi isbotlangan. Shunday qilib, neft va gaz sanoati korxonalarini ishlab chiqarish faoliyatining barcha turlarida, tabiiy muhit ifloslanishi yuqori. Lekin, shuni ham ta'kidlash kerakki, tabiatni o'z-o'zini tiklash uchun imkoniyatlar yetarlicha katta, faqat tabiatni bu xususiyati ma'lum me'yorgacha amal qiladi va ifloslanish darajasi ushbu me'yordan oshsa geokomplekslar o'zini-o'zi tiklay olmaydi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra hozirda respublikamizda ishlab chiqarilayotgan gazni 70% i, neftni 78% i, gaz kondensatini 80% dan ortig'i Qashqadaryo hissasiga tegishli. Bu hududda sanoat juda tez rivojlanib bormoqda. "Sho'rtan neft-gaz", "Muborak neft-gaz" korxonalarini, "Sho'rtan gaz-kimyo" majmuasi, Muborak gazni qayta ishlash zavodi, Dehqonobod kaliyli o'g'itlar zavodi, Tallimardon IES va boshqa yirik sanoat korxonalar respublikamizda muhim o'rinn tutadi.

Biz Qashqadaryo havzasida sanoat korxonalarining, jumladan neft va gaz sanoati korxonalarini tevarak-atrofga ta'sirini Sho'rtan gaz kimyo majmuasi misoldida ko'rib chiqishga xarakat qilamiz. Sho'rtan gaz-kimyo majmuasi O'zbekistonning neft-gaz sohasidagi yetakchi korxonalaridan biridir. Tanlab olgan tayanch uchastka G'uzor tumanining cho'l zonasida, dengiz sathidan 410-470 m balandlikda joylashgan. Iqlimi keskin kontinental bo'lib, yillik yog'in miqdori 200-280 mmni tashkil etadi. Yillik o'rtacha harorat +15-17 °C (eng yuqori +48°C, eng past -25°C) ni tashkil etadi. Hudud tuproqlari och tusli sho'rlangan bo'z tuproqlar bo'lib, 40-120 sm chuqurlikdan gips qatlama boshsanadi.

Majmua tabiiy gazni chuqur qayta ishlash orqali polietilen granulalari, tozalangan tabiiy gaz, uglevodorodli suyultirilgan gaz, barqaror gaz kondensati, texnik oltingugurt va shuningdek, polietilendan tayyor xalq iste'moli mahsulotlari ishlab chiqaradi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996-yil 11-noyabrdagi 395-sonli "Polietilen ishlab chiqaradigan

Sho'rtan gaz-kimyo majmuasi qurilishi to'g'risida"gi qarori bilan qurilgan va 2001-yildan faoliyatini boshlagan.

2-jadval. 2014-2015-yillarda chiqindi oqova suvlarning taqsimplanishi

Oqova suvlar turi, m ³ /yil	Amaldagi loyiada	2014 haqiqatda	2015 haqiqatda
Maishiy oqova suvlari	320 000	229 021	224 678
Yog'li oqova suvlari	288 000	233 789	273 325
Kimyoviy moddalar bilan to'yingan oqova suvlari	144 000	50 306	50 709
Minerallashgan oqova suvlari	3 008 000	1 415 354	1 538 365

*jadval viloyat statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Kuzatuvar mobaynida, asosan manzarali va mevali daraxtlarni agroqlim sharoiti, ularni kasallanganligi hamda olib borilgan agrotexnik tadbirlar atroflichcha o'rganildi. Majmua hududida ko'kalamzorlashtirilgan manzarali va mevali daraxtlar umumiyy maydoni 400 ga ga yaqin bo'lib, sug'oriladigan maydonlarda turli igna bargli va mevali daraxtlar ekilgan. Manzarali daraxtlardan mojivelnik, tuya, tut, qayin, shoyi akatsiyasi va mevali daraxtlardan o'rik, behi, bodom, olma, olcha shu bilan bir qatorda saksovul ekilgan. Hudud 4 ta uchastkaga bo'lib o'rganildi (3-jadvalga qarang).

Sho'rtangaz kimyo majmuasi hududidagi tuproqlarda ifloslanish darajasi ham ancha yuqoriligi bilan ajralib turadi. Harakatchan shakldagi og'ir metallarning tuproqda REM miqdori quyidagicha: qo'rg'oshin - 6 mg/kg, kadmiy - 1,0 mg/kg, mis - 3,0 mg/kg, rux - 23 mg/kg [1], respublikamizda REMga ko'ra 1 kg tuproqda qo'rg'oshin - 32 mg, mis - 3,0 mg, kadmiy - 1, mishyak - 2,0 mg, rux - 23 mg bo'lishi kerak [3:14-18].

3-jadval. Tayanch hududning meliorativ holati

Uchastka	Tuprok xolati		O'sadigan daraxt turlari	Agrotexnik talablar
	Sho'rلانish darajasi	Gips qatlami chuqurligi, sm		
1	Sho'rxok	30-40	Mojivelnik, tuya, saksovul, yulg'un, bodom, terak, qayrag'och, isiriq	Asosan yo'1 chetida qoniqarli
2	O'racha sho'rланган	110 - 130	Isiriq, saksovul, yulg'un, bodom, tereskan, dastar-bosh shuvoq, iloq, qora saksovul	Asosan yo'1 chetida qoniqarli

3	Kuchli sho'rланган	60	Mojivelnik, isiriq, bodom, o'rik, saksovul, yulg'un, sho'ra, sarsazan, sho'rajriq qizilmiya, oqbosh	Barcha agrotexnik talablar to'liq bajarilgan
4	Juda kuchli sho'rланган	60-80	Sho'ra, sarsazan, sho'rajriq, yulg'un, qora saksovul	Barcha agrotexnik talablar to'liq bajarilgan

*jadval viloyat statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Sh.T.Holiquulov va T.B.Yakubovning 2019-yilda olib borgan tadqiqotlariga ko'ra Sho'rtangaz kimyo majmuasi hududida harakatchan shakldagi qo'rg'oshinning eng ko'p miqdori 18,6 mg/kg. Bu ko'rsatkich majmuuning shimoli-g'arbiy yo'nalishida 250 m uzoqlikdagi tuproqning 0-30 sm qatlamida 18,6 mg/kg, 30-50 sm qatlamida esa 17,6 mg/kg ekanligi, majmuuning shimoli-g'arbida harakatchan kadmiyning eng ko'p miqdori 1000 m da 0-30 sm qatlamda 2,67 mg/kg, 30-50 sm qatlamda 2,58 mg/kg ekanligi, harakatchan misning eng ko'p miqdori janubi-sharqda 1000 m da 0-30 sm da 9,0 mg/kg, 30-50 sm chuqurlikda esa 8,36 mg/kg, harakatchan rux majmua atrofida REM dan ancha kamligi aniqlandi, faqatgina shimoli-sharqda majmuadan 500 m uzoqlikda 0-30 sm da 47,59 mg/kg, 30-50 sm chuqurlikda esa 49,02 mg/kg bo'lib, og'ir metallar REM dan yuqori ekanligi aniqlangan [4:14-18]. Qashqadaryo havzasini geotizimlarini geoekologik holatini optimallashtirish uchun olib borilgan tadqiqot natijalari asosida va tabiiy muhitning ichki hamda tashqi aloqadorligini e'tiborga olib ilmiy asoslangan choratadbirlar majmuuni ishlab chiqishga xarakat qildik. Buning uchun birinchi navbatda ekologik vaziyatlarni vujudga kelтирувчи va keskinlashtiruvchi mexanizmlarni har tomonlhma tahlil etib ilmiy jihatdan asoslangan optimallashtirish tadbirlarni ishlab chiqish zarur. Qashqadaryo havzasida vujudga kelgan ekologik vaziyatni sog'lomlashtirish va atrof-muhitni geoekologik holatini optimallashtirish uchun quyidagi choratadbirlarni amalga oshirish lozim deb o'yaymiz:

Zavod va fabrikalardan chiqadigan zaharli texnogen chiqindilar ta'sirini kamaytirish uchun: a) ishlab chiqarish jarayonini innovatsion, toza ekologik texnologiyada ishlashga o'tkazish; b) ishlab chiqarish chiqindilarini zararsizlantirish, chiqindilarini qayta ishslash yo'li bilan geoekologik holatini yaxshilash; v) chiqindillardan qurilish materiallari, turli mineral o'g'itlar olish; g) ifloslangan texnik suvlarni maxsus qurilmalar yordamida tozalash, jumladan 80-100 sm qalinlikdagi tuproqdan filtrlash yo'li bilan ularni zararsizlantirish.

Xulosa. Yuqoridaqilarni umumlashtirgan holda shuni ta'kidlash kerakki har bir sanoat korxonasi faqatgina ishlab chiqaruvchi manba bo'lib qolmasdan, o'zining tevarak-atrofga sezilarli ta'sir o'tkazadi va shu bilan birga u tevarak-atrofi bilan murakkab texnogen geotizim sifatida namoyon bo'ladi.

Adabiyotlar

- Назаров М.Г. Қашқадарё хавзасининг антропоген ландшафтлари ва уларнинг геоэкологик ҳолати. PhD дисс. автореф. –Самарқанд: 2020. 19-б.
- Шарипов Ш.К. Табиатни муҳофаза қилишда геоэкологик ёндашув (Тошкент вилояти мисолида). Геог.фан.ном. автореф. –Т.: 2011. 25-б.
- Рафиқов А.А. Геоэкологиянинг назарий ва методологик асослари. // География ва қадриятлар. – Тошкент: 2001. 143-б.
- Холиқулов Ш.Т., Якубов Т.Б. Шўртангаз кимё мажмуасининг атроф-мухитга таъсири. Ўзбекистон География жамияти ахбороти. 55-жилд. -Тошкент: 2019. 14-18-б.

REZYUME. Maqolada bugungi kunda dolzarb masalalardan biri bo‘lgan, Qashqadaryo havzasida sanoat korxonalarining, jumladan neft va gaz sanoati korxonalarini tevarak-atrofga ta’siri o‘rganilgan. Ushbu muammolarni shakllanishida tabiiy hamda antropogen omillarning roli, uni bartaraf etish chora tadbirlari haqida bayon etilgan.

РЕЗЮМЕ. В статье рассматривается влияние промышленных предприятий, в том числе нефтегазовой промышленности, на окружающую среду в бассейне Кашкадарья, что является одним из актуальных вопросов сегодня. Изложена роль природных и антропогенных факторов в формировании этих проблем, а также меры по их устранению.

SUMMARY. The article examines the impact of industrial enterprises in the Kashkadarya basin, including oil and gas industry enterprises, on the environment, which is one of the pressing issues today. The role of natural and anthropogenic factors in the formation of these problems and measures for their elimination are described.

QASHQADARYO VILOYATIDA QISHLOQ TURIZMINI RIVOJLANTIRISHDA XALQARO TAJRIBALAR DAN FOYDALANISH

S.Normatov – assistent o‘qituvchi

Shaxrisabz davlat pedagogika instituti

Tayanch so‘zlar: qishloq turizmi, aholi daromadi, qishloq uylari, agroturizm, turizm qishlog‘i.

Ключевые слова: сельский туризм, доходы населения, сельские дома, агротуризм, туристическая деревня.

Key words: rural tourism, population income, rural houses, agrotourism, tourist village.

Kirish. Butunjahon turizm tashkiloti (UNWTO) va Jahon savdo tashkiloti (WTO)ning ma’lumotlariga ko‘ra, jahon bo‘yicha 2023-yilda xalqaro turizm bozorida 1,4 trillion dollarlik xizmatlar eksporti amalga oshirilgan hamda sohada tiklanish jarayoni kechmoqda, Xalqaro turizm 2023-yil oxiriga kelib pandemiyadan oldingi darajaning deyarli 90 foiziga yetadi. Jahon sayyohlik tashkilotining (UNWTO) so‘nggi ma’lumotlariga ko‘ra, Xalqaro turizm 2023-yilda 1,4 trillion AQSh dollarini tashkil etdi [3]. Binobarin, turizm tarmoqlari orasida qishloq turizmi ham urbanizatsiya jarayonining oshib borishi natijasida tez rivojlanib borayotgan sohalardan biri sifatida uning ulushi ortib bormoqda. Shu nuqtayi nazaridan qishloq turizmini geografik tadqiq etish muhim va dolzarb masalalardan biri sifatida qaralmoqda. Chunonchi, O‘zbekistonda, qolaversa Qashqadaryo viloyatidagi turistik imkoniyati yuqori bo‘lgan qishloqlarda turistik xizmatlarni amalga oshirish asnosida hududlarning turistik salohiyatini yanada yuksaltirish imkoniyatlarini aniqlash va baholash hamda mavjud infratuzilmani takomillashtirishni taqozo etadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni 1-ilovasidagi 35-maqсад: “O‘zbekiston bo‘ylab sayohat qiling” dasturi doirasida mahalliy sayyohlar sonini 12 million nafardan oshirish hamda respublikaga tashrif buyuradigan xorijiy turistlar sonini 9 million nafarga yetkazish nazarga utilgan holda turizm va madaniy meros obyektlari infratuzilmasini rivojlantirish hamda 8 mingdan ortiq madaniy meros obyektlaridan samarali foydalanish bo‘yicha davlat

dasturini qabul qilish va 2026-yilgacha turizm sohasida band bo‘lgan aholi sonini 2 baravar oshirib, 520 ming nafarga yetkazish maqsad qilingan [1]. Bu o‘z o‘rnida hududlarda turizm sohasida yangi ish o‘rinlari, kichik biznes, kambag‘allikni qisqartirish, hududlarni iqtisodiy rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etishi nuqtayi nazaridan qishloq turizmi rivojlangan davlatlar tajribasini o‘rganishni talab qiladi.

Asosiy qism. Qishloq turizmi bugungi kunda ayniqsa Fransiya, Italiya va Ispaniyada rivojlangan turizm sohalaridan biri hisoblanadi. Shahar shovqini va shovqinidan charchagan odam tabiat qo‘ynida maroqli dam olishi, mahalliy aholining an‘anaviy turmush tarzi bilan tanishishi, qishloqlarda sayyohlar turli ekinlarni yetishtirish va qishloq xo‘jaligi ishlarida qatnashishning nozik jihatlarini o‘rganishdan zavqlanadilar. Bundan tashqari qishloq turizmida sayohat xarajatlari nisbatan past bo‘lishi, butun oilaviy sayohat uchun ochiqligi va farzandlar bilan foydali va qiziqarli dam olish uchun ajoyib imkoniyat yaratadi. Agroturizm va qishloq turizmi tushunchasi 1980-yillardan qo‘llanila boshlangan [4]. Asta-sekinlik bilan esa muomalaga qishloq turizmi termini kirib kelgan va agroturizm va qishloq turizmi qishloq turizmining bir qismi sifatida qarab kelingan. Ammo qishloq turizmi bizning nazarimizda kengroq tushuncha hisoblanadi. Chunki, qishloq joylarida agroturizm, etnoturizm, ekoturizm, gostronomik turizm va boshqalar majmuali bo‘lishi, ular ichida esa biron bir sohasi drayver vazifasini bajarishini nazaridan chetda qoldirmaslik lozimdir. Darhaqiqat, aytish joizki, M.Uzmanov (2024) tadqiqotlarida Qashqadaryo viloyatida “Hazrati Muborak Marvaziy” ziyyaratgohi,

“Sulton Mir Haydar” yodgorlik majmuasi, “Murodbaxsh ota” ziyoratgohi, Abu Ubayda ibn al-Jarrah” yodgorlik majmui, “Abul Barakot Muyiynan-Nasafiy” ziyoratgohi, “Mirijanda ota” yodgorlik majmuasi, “Langar ota” ziyoratgohi, “Dorus – Saodat”majmuasi, “Dor ut-Tilovat” majmuasi, “Hazrati Bashir” ziyoratgohi, “Qusam ota”z iyoratgohi, Xo’ja Abdulaziz madrasasi, Qilichboy madrasasi kabi ziyoratgoh qishloq turizmi drayveri sifatida olish mumkin [3]. Qishloqlarning etno, agro, eko, gostromonik va tog‘ turizmi drayveri sifatida esa Qashqadaryo viloyati shimoliy-sharqda Zarafshon tog‘ tizmasi (Qoratepa va Chaqlikalon tog‘lari), Hisor tog‘ tizmasi (Beshnov, Sumsar, Shertog‘, Xontaxti, Eshakmaydon, Maydanak, Toytalash, Chaqchar, Qorasirt va boshqalar), His ortog‘ini janubiy-sharqda qismidagi (Osmontarash, Ko‘ktog‘, Konsoy, Kaypantog‘, Torqopchig‘ay va h.k.) tog‘ tizmalar bilan chegaralangan qishloq joylarini kiritish maqsadga muvofiqdir. Tekislik qismida Qashqadaryoni o‘rtा va quyi sohillari, Muborak va Nishoncho’llaridagi qishloqlar esa ekoturistik va etnoturistik drayverlar sifatida kirtsak bo‘ladi.

Izlanishlarimiz natijasida mintaqada turizm yo‘nalishini tashkil etishning innovatsion modellari, turistik klaster yondashuvi asosida qishloq turizmini rivojlantirishga investitsiyalarni jalb qilishning tashkiliy-iqtisodiy asoslar, istiqbolda qishloq xo‘jaligida joriy etishni rivojlantirish bo‘yicha ilmiy xulosalar va takliflar ishlab chiqish talab etiladi. Tadqiqotning metodologik asosi nazariy va amaliy ma’lumotlarni, adabiy manbalar va nashrlarni xorij tajribasiga asoslangan holda o‘rganish yaxshi samara beradi, - deb hisoblaymiz.

Qishloq turizmi bo‘yicha bir qancha olimlar ilmiy qarashlari va tasniflari mayjud. Jumladan, **A.S.Kuskov va Yu.A.Djaladyanlar** Qishloq turizmi- bu qishloq oilasi tomonida o‘z turar joyi va shaxsiy tomorqasi negizida hamda dehqonchilik xo‘jaligini yuritish uchun ajratilgan yer uchastkasida tashkil etilgan mehmon uyida shahar aholisini dam olish demakdir, deb ta’riflaydi. Qolaversa qishloq oilasi tomonidan turar joy, ovqatlanish va qishloqning diqqatga sazovor joylari bilan tanishtirish ta’milanishi lozimligi ham qayd etadi [6].

A.P.Ioshenko (2005) - Qishloq turizmi bu-sayyoohlar uchun turli xizmatlarni o‘z ichiga olgan qishloq uyida yashashdir, deb ta’rif beradi. Shuningdek, ekoturlar, sarguzashtli sayohatlar va qishloq aholisining turmush tarzida ishtirot etishi tushiniladi [5].

A.B.Zdorov (2004) - Qishloq turizmi bu – ekotizim va etnomadaniy majmualarga ziyon keltirmagan holda qishloq joylarga sayohat uyuştirish, deb ta’kidlaydi. Bunda turizm bevosita qishloq aholisining iqtisodiy rivojlanishiga va muammolariga yechim topishiga xizmat qilishi muhim deb hisoblaydi [6].

Bizningcha, **qishloq turizm - majmuali turistik resurslar va xizmatlarni taklif etish imkoniyatiga ega bo‘lgan hududdir.** Binobarin, qishloq turizmi majmualı yondoshuvni taqozo etadi. Shuningdek, qishloqdagı biron bir turistik resurs drayver vazifasını bajaradi.

O‘zbekiston hududida turizm sohasi barqaror rivojlanayotgan viloyat sifatida Qashqadaryo turistik

destinatsiyasitning kelajakdagи rivoji uchun barcha imkoniyatlar qatori qishloq turizmi ham o‘rniga egadir. Qashqadaryo hududi o‘ziga xos geografik joylashuvga ega bo‘lib, u janub va janubiy g‘arbiy, shimoli- g‘arbiy qismlari tekisliklardan, shimoli-sharqiy, janubi-sharqiy va sharqiy tomonlari tog‘lardan iborat ekanligini qishloqlar o‘zining takrorlanmas tabiat, xo‘jaligi, ethnografiyasi shakllanishida ma’lum darajada xizmat qilgan. Ayniqsa, qishloq hududlarida ekologik toza bo‘lgan muhiti ekoturizmni, qishloq turmush tarzi etnoturizmni, xo‘jalik faoliyatni esa agroturizmni hududiy tashkil etishga xizmat qiladi. Tog‘li hududlarning mavjudligi va ularning ko‘pchiligi bugungi kunda mintaqada qishloq turizmini yo‘lga qo‘yish uchun manba hamda yetarli resurs bo‘lib xizmat qiladi. Bu tabiiy resurslardan unumli foydalanish hamda qishloq hududlarining ijtimoiy ahvolini yaxshilashda aynan turizmni yo‘lga qo‘yishda bir qancha xorij davlatlarini tajribasini aytishimiz mumkin.

Fransiya qishloq turizmi - bu mamlakatning go‘zal qishloqlari va tabiiy manzaralarini kashf etishga imkon beradigan turizm turi. Bu soha sayohatchilarga qishloq hayoti, mahalliy madaniyat, an’anaviy taomlar va tabiiy go‘zalliklar bilan tanishish imkoniyatini beradi. Fransiya qishloq turizmining asosiy jihatlari tabiat bilan yaqinlik, qishloqlarda sayohatchilar toza havo, go‘zal manzaralar va tinch muhitdan bahramand bo‘lishlari asosiy ustunligidir. Bundan tashqari, mahalliy madaniyat va an’analar, sayohatchilar mahalliy aholi bilan muloqot qilib, ularning turmush tarzi va an’analarini o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘lishadi. Shuningdek, Fransiya o‘zining gastronomiyasi bilan mashhur. Qishloqlarda mahalliy mahsulotlardan tayyorlangan taomlar va ichimliklarni tatib ko‘rish imkoniyati beradi. Fransiyaning mashhur qishloq mintaqalari Provensal qishlog‘i: Lavanda dalalari, quyoshli iqlimi va go‘zal qishloqlari bilan mashhur. Ushbu mintaqada piyoda yurish va velosipedda sayohat qilish imkoniyatlari ko‘p. Burgundiya qishlog‘i: vino ishlab chiqarish markazi. Sayohatchilar vino zavodlarini ziyorat qilishlari va mahalliy taomlarni tatib ko‘rishlari mumkin. Normandiya qishlog‘i: Tarixiy joylar, go‘zal plyajlar va dengiz mahsulotlari bilan tanilgan. Lazuriy sohillaridagi qishloqlar: o‘zining go‘zal plyajlari, qishloqlari va tabiat manzaralari bilan mashhur.

Italiya qishloq turizmi – bu mamlakatning go‘zal qishloqlari, tarixiy joylari va tabiiy manzaralarini kashf etishga imkon beradigan turizm turi. Bu soha sayohatchilarga an’anaviy italiyalik hayot tarzini, mahalliy madaniyatni va gastronomiyani o‘rganish imkoniyatini beradi. Italiya qishloqlari o‘zining go‘zal tog‘lari, vinolar bog‘lari va dalalari bilan mashhur. Sayohatchilar toza havo va tinch muhitdan bahramand bo‘lishlari mumkin. Qolaversa turistlar mahalliy aholi bilan muloqot qilib, ularning an’analari, san’atlari va urfatlarini o‘rganish imkoniyatiga ega. Gastronomik tajribalar: Italiya o‘zining mazali taomlari va vinolari bilan mashhur. Qishloqlarda mahalliy mahsulotlardan tayyorlangan taomlarni tatib ko‘rish mumkin.

Italiyaning mashhur qishloq mintaqalari sifatida Toskana: Go‘zal manzaralari, vinolar bog‘lari va tarixiy

qishloqlari bilan mashhur. San Gimignano, Montalcino va Chianti kabi joylar sayohatchilar uchun juda qiziqarli. Umbria: Toskana bilan qo'shni mintaqasi, unda ham go'zal tabiat va tarixiy qishloqlar mavjud. Assisi va Perugia kabi joylar mashhur. Piemont: Vino ishlab chiqarish markazi, shuningdek, go'zal tog'lar va qishloqlar bilan tanilgan. Sardiniya va Sitsiliya: Ushbu orollarda ham qishloq turizmi rivojlangan bo'lib, ularning o'ziga xos madaniyati va tabiat manzaralari mavjud. Italiya qishloqlari har yili qishloqlarda turli tadbirlar, festivallar va bozorlar o'tkaziladi, bu esa sayohatchilar uchun qiziqarli bo'ladi. Italiyada qishloqlarga yetib borish uchun temir yo'l va avtobus xizmatlari mavjud. Avtomobil ijarasi orqali ham sayohat qilish mumkin, bu esa sayohatchilarga erkinlik beradi.

Ispaniya qishloq turizmi – bu mamlakatning go'zal qishloqlari, an'anaviy madaniyati va tabiiy manzaralarini o'rganishga imkon beradigan turizm turi. Ispaniya o'zining xilma-xil mintaqalari, tarixiy joylari va mazali taomlari bilan sayohatchilarni jalb etadi. Ispanyaning qishloqlari go'zal tog'lar, daryolar, plyajlar va dalalar bilan o'ralsan. Bu sayohatchilarga tinch muhitda dam olish imkonini beradi. Mahalliy madaniyat: Ispaniya qishloqlari o'zining boy tarixi, urf-odatlari va an'analari bilan mashhur. Sayohatchilar mahalliy aholi bilan muloqot qilib, ularning hayot tarzini o'rganish imkoniyatiga ega.

Gastronomik tajribalar: Ispaniya o'zining mazali taomlari, masalan, tapas, paella va jamon bilan tanilgan. Qishloqlarda mahalliy mahsulotlardan tayyorlangan taomlarni tatif ko'rish mumkin. Andalusiya: Flamenco raqsi, shirin taomlar va go'zal manzaralari bilan mashhur. Ronda, Mijas va Grazalema kabi qishloqlar sayohatchilar uchun qiziqarli. Kataloniya: Go'zal tabiat va tarixiy joylarga ega. Cadaqués va Besalú kabi qishloqlar ko'p sayohatchilarni jalb etadi. Galisiya: O'zining go'zal plyajlari va tabiat manzaralari bilan mashhur. Combarro va Sanxenxo kabi joylar sayohatchilar uchun qiziqarli. Bask: An'anaviy bask madaniyati va gastronomiyasi bilan tanilgan. Getaria va Hondarribia kabi qishloqlar juda go'zal. Rural mehmonxonalar: Mahalliy aholi tomonidan boshqariladigan qulay mehmonxonalar, bu sayohatchilar uchun qishloq hayoti bilan tanishish imkonini beradi.

Rossiyada qishloq turizmi uchun ko'plab yo'nalishlar mavjud, shuning uchun aviachiptalarni sotib olish va viza olish uchun vaqt sarflashning hojati yo'q.

Rossiyada qishloq xo'jaligini rivojlantirish uchun 72 milliard rubl ajratish rejalashtirilgan. Ajratilgan mablag'lar o'rta zonada sabzavot, meva va rezavorlar yetishtirish va Krasnodar o'lkasida tarvuz etishtirish uchun zarur. Rejaga ko'ra, keng ko'lamli inyeksiyalar 50 mingga yaqin kishini ish bilan ta'minlash, mahalliy infratuzilmani yaxshilash va qishloq aholisining hayot sifatini yaxshilash imkonini beradi. Dastur Rossiyada qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi bilan u yoki bu tarzda bog'liq bo'lgan 50 ga yaqin sanoatni rivojlantirishni nazarda tutadi. Natijada, 2030- yilga kelib, qishloq turizmidan olinadigan daromad 50 milliard rublgacha oshishi kerak.

1. Krasnodar o'liasi. 2017-yildan buyon viloyatda "Agroturizm" uyushmasi faoliyat yuritmoqda. Hozirda Krasnodar o'lkasida yuzdan ortiq qishloq turizmi markazlari - agroturizm majmualari, ko'chatxonalar, xususiy qishloq xo'jaligi mulklari, asalarichilik, chorvachilik fermalari, vino zavodlari, choy plantatsiyalari, otchilik klublari, baliqchilik va ovchilik bazalari mavjud. Agroturizm dasturi bo'yicha mehmonlarni qabul qiladigan fermer xo'jaliklari kichik shaharlar va Kuban qishloqlarida joylashgan. Yaqin atrofda tarvuz, makkajo'xori, pomidor, olcha, olcha, olma, shaftoli, olxo'ri, o'rik ekiladigan maydonlar mavjud. Kubandagi dam olish markazlari tashrif buyuruvchilarga ekinlarni yig'ish va hayvonlarga g'amxo'rlik qilishni o'rgatadi. Qishloq xo'jaligi ishlari evaziga sayyohlarga uy-joy va boshqa xizmatlar uchun chegirmalar taklif etiladi. Mehmono'st mezbonlar mehmonlarni yangi qishloq suti va pishloqlari bilan ta'minlaydilar va ularni bajonidil ekskursiyalarga olib boradilar. Ko'pgina qishloq uylarida hammom, asalarichilik va suv havzalari mavjud.

2. Kareliya So'nggi yillarda agroturizm ayniqsa Kondopoga, Louxskiy, Suoyarvskiy, Pudojskiy, Pitkarantskiy, Olonetskiy va Pryajinskiy tumanlarida ommalashdi. Mutaxassislarining fikriga ko'ra, bugungi kunda Kareliyada qishloq joylarda 500 ga yaqin oila istiqomat qiladi, har yili 10 000 sayyohni qabul qiladi. O'rmonlar va ko'llar orasida dam olish sizga ajoyib Kareliya tabiatidan zavqlanish imkonini beradi. Sayohatchilar yog'och uylarda yashaydilar, qishloq hammomida dam olishadi va baliq ovlash, qo'ziqorin va yovvoyi rezavorlar terishdan zavqlanishadi. Qishda chang'i, qorda haydash va it chanasi mashhur mashg'ulotlardir.

1-jadval. Qashqadaryo viloyatidagi turizm imkoniyatlari yuqori bo'lgan tog' qishloqlari

Kitob tumani Qishloqlari	Shahrisabz tumani qishloqlari	Yakkabog' tumani qishloqlari
Bashir	G'elon	Tatar
Qaynar	Ko'l	Kaltaqo'l
Oqsuv	Miraki	Zarmas
Oyoqchi	Sarchashma	Vori
Palandara	Uloch	Nov
Varganza	Hisorak	Zomit
Jovuz	Xitoy	

Izoh: Jadval muallif tomonidan viloyat statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida tayyorlangan.

2-jadval. Qashqadaryo viloyatidagi turizm imkoniyatlari yuqori bo'lgan tog' oldi qishloqlari

Chiroqchi tumani	Qamashi tumani	Dehqonobod tumani	G'uzor tumani
Langar	Do'kanxona	Belboyli	Obihayot
Tarag'ay	Polvonsoy	Qizilsoy	Gumbuloq
Tutli	Oqzov	Duob	Pachkamar
G'orovli	Oqqishloq	Oqqishloq	Qirpach-kamar
To'laqo'l	Yong'oqli	Shaxshar	
	Ko'kbuloq	Dukonxona	
	Langar		

Izoh: Jadval muallif tomonidan viloyat statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida tayyorlangan.

3-jadval. Qashqadaryo viloyatidagi turizm imkoniyatlari yuqori bo‘lgancho‘l qishloqlari

Muborak tumani	Baxt Taqirquduq Zarbuloq Xo‘jamuborak
Kasbi tumani	Baxt Taqirquduq Zarbuloq Xo‘jamuborak
Kasbi tumani	Baxt Taqirquduq Zarbuloq Xo‘jamuborak
Kasbi tumani	Baxt Taqirquduq Zarbuloq Xo‘jamuborak
Kasbi tumani	Baxt Taqirquduq Zarbuloq Xo‘jamuborak
Kasbi tumani	Baxt Taqirquduq Zarbuloq Xo‘jamuborak

Izoh: Jadval mualif tomonidan viloyat statistika boshqarmasi ma’lumotlari asosida tayyorlangan.

Qashqadaryo qishloq turizmni rivojlantirishda xalqaro tajribalardan foydalanishga ahamiyat berilgan bo‘lib, amaliy takliflarni bildirishda tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati hamda istiqbolli turistik qishloqlarni ilmiy manbalar va nashirlarni o‘rganish natijasida shakillantirildi. Qashqadaryo viloyati hududida mavjud turistik imkoniyatlari ega bo‘lgan qishloqlarni o‘rganish zarur. Shu bilan birga qishloq hududlarda qishloq uylari, agroturizm, turizm qishlog‘i, istiqbolli marshrutlar, turistik xarita dasturini yaratib, turistlarni taklif qilish lozim.

Xulosa. Qashqadaryoda qishloq turizmi faoliyati hali jadal suratlarda rivojlanmagan bo‘lsada, viloyatda qishloq turizmining afzalliklaridan foydalanish uchun qulay sharoitlar mavjud bo‘lib, xorij tajribasini o‘rganish muhim masalalardan hisoblanadi. Viloyatdagi turizm imkoniyatlari yuqori bo‘lgan qishloqlarni aniqlash, ilmiy asosda tahlil qilish orqali barqaror qishloq turizmni rivojlantirish strategiyasini xorij tajribasi misolida ishlab chiqish muhimdir.

Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi «O‘zbekiston-2030» strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-158-son Farmoni.
3. Usmanov M.R. Janubi-g‘arbiy O‘zbekistonda turizmni rivojlantirishning geografik xususiyatlari mavzusidagi geog.fan.dok.(DSc) disser. –Samarqand: 2024.
4. Agzamova N. Hududlarning iqtisodiy rivojlanishida qishloq turizmining ahamiyati. // International scientific and practical conference «innovative approaches in study of the language, literature, translation, tourism and cultural heritage On the silk road», may 3-4, 2024.
5. Иощенко А.П. Развитие зеленого туризма в России. – Москва: «Кнорус», 2005. –С.234.
6. Здоров А.Б. Экономика туризма. – Москва: «Финансы и статистика», 2004. –С. 456.
7. Normatov S.A. Qashqadaryo qishloq turizmining shakllanishi va rivojlanishi. // «Zamonaviy geografiyada innovatsion g‘oyalar: raqamlı Iqtisodiyot va GIS texnologiyalar» mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. – Qarshi: 2024.
8. <https://www.kp.ru/russia/selskij-turizm-v-rossii/>

REZYUME. Ushbu maqolada Qashqadaryo qishloq turizmni rivojlantirishda xalqaro tajribalardan foydalanishga ahamiyat berilgan bo‘lib, amaliy takliflarni bildirishda tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati hamda istiqbolli turistik qishloqlarni ilmiy manbalar va nashrlarni o‘rganish natijasida shakllantirildi. Tadqiqotda nazariya va amaliyot o‘rtasidagi bog‘liqliklarga asoslanib, shu bilan birgalikda tahlil, taqqoslash, usullardan foydalanilgan.

РЕЗЮМЕ. В данной статье придается значение использованию международного опыта в развитии сельского туризма в Кашкадарье, а теоретическая и практическая значимость исследований при вынесении практических предложений сформировалась в результате изучения научных источников и публикаций перспективных туристских поселков. В исследовании использовались анализ, сравнение и методы, основанные на взаимосвязи теории и практики.

SUMMARY. This article emphasizes the use of international experience in the development of rural tourism in Kashkadarya, and the theoretical and practical significance of the study in making practical proposals, as well as the formation of promising tourist villages as a result of studying scientific sources and publications. The study was based on the relationship between theory and practice, and also used analysis, comparison, and methods.

JÁMIYETLIK HÁM EKONOMIKALÍQ İLIMLER

Tariyx. Huqıqtanıw. Ruwqılylıq tiykarları

SURXON VOHASI LO'LILARINING XO'JALIK FAOLIYATLARI

M.A.Ro'ziyeva – o'qituvchi

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti

Tayanch so'zlar: Surxon vohasi, etnik jarayonlar, lo'li, xo'jalik faoliyati, folbin, hunarmandchilik, savdo-sotiq.

Ключевые слова: Сурханский оазис, этнические процессы, цыгане, хозяйственная деятельность, гадалка, ремесла, торговля.

Key words: Surkhan oasis, ethnic processes, gypsies, economic activity, fortune teller, crafts, trade.

Kirish. XX asrning 50-60-yillarida Surxondaryo vohasida lo'lilarining aksariyati o'troqlashib, o'troq hayotga o'tib boshlaganlar, ya'ni o'z uy-joylariga ega bo'lishgan. Mashg'ulot turlari ham o'zgarib, dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanish ko'lami ortgan, davlat idoralarida turli vazifalarda faoliyat yurituvchilari ko'paygan, o'rta va oliv ma'lumotli kadrlar yetishib chiqqan. Tovoqtaroshlar deb nomlanuvchi etnik guruhning ham mashg'ulotlarida o'zgarishlar sodir bo'lgan. Yog'och lagan, yog'och kosalarga ehtiyoj kamayganligi hisobiga, ular beshik, bolalar uchun aravachalar yasay boshlashdi. Ikkilamchi mahsulotlarni yig'ib topshiruvchilar soni ko'paydi. Lo'lilar eshak aravalarda shahar, qishloqlar bo'ylab shisha idishlarni yig'ib topshirish bilan shug'ullana boshlashdi. Bir so'z bilan aytganda, shaharning «sanitar»lariga aylanishdi. Bo'sh shishalarni yig'ishardi, ularni olib chiqqan yosh bolalarga sharik, xo'rozqand tarqatishardi. Bolalar xo'rozqand, sharik olish uchun ular keladigan kungacha idishlarni yig'ib qo'yishar edi [2]. Bolalari shu davrdan mактабга borganlar. 1970-yillardan boshlab, o'rta ma'lumotli qatlama shakllanib, maxsus kasblarga, ya'ni traktorchilar, haydovchilar paydo bo'lgan. O'sha davr talablariga muvofiq harbiy xizmatga ham faol jalb qilinganlar. Keyinchalik mahalliy aholi vakillari bilan aralash nikohlar ham ro'y berishi evaziga madaniy moslashuv yangi darajaga chiqqan.

Asosiy qism. Vohaning Denov, Jarqo'rg'on shaharlarida yashagan lo'lilarning mehnat ko'nikmalarini o'zlashtirishi jarayonida XX asrning 70-yillariga kelib, ayrim ijobjiy o'zgarishlar sodir bo'lgan. Buning asosiy sabablaridan biri 50-yillarda joriy etilgan majburiy o'rta ta'lim bo'lib, uning natijasida lo'lilar orasida savodxonlik darajasining birmuncha o'sishiga olib kelgan. Ko'pgina savodli lo'li yoshlari traktorchi, haydovchi, san'atkor, ipyigiruvchi, to'quvchi, o'qituvchi, tibbiyot, madaniyat, militsiya xodimi kasblarida mehnat qila boshlaganlar [5:93].

1980-yillari lo'lilarning aksar qismi kolxozlarda ishchi, traktorchi, suvchi, hatto brigadir lavozimida ishlashdi. Jarqo'rg'on tumanida faoliyat yuritgan temir-beton zavodida 30 dan ortiq lo'li yigitlari faoliyat yuritishar edi. Lo'li ayollarini tilanchilik va folbinlik bilan shug'ullanishdi. Rossiya shaharlarida mehnat qiluvchilar ham ko'pchilikni tashkil qilar edi [1].

XX asrning 90-yillarida pul-tovar munosabatlarining kuchayishi natijasida, ayniqsa, shaharlik lo'lilar orasida ishbilarmon «yangi lo'lilar» qatlami vujudga kela boshlagan. Ular, asosan, savdo-sotiq sohasida faoliyat

ko'rsatishgan. Shahar va katta qishloqlarda yashovchi lo'lilardan chiqqan xodimlar hozirgi kunimizda, asosan, ichki ishlar tizimi, tibbiyot, maorif va madaniyat kabi sohalarda, shuningdek, qo'shiqchi, karnay-surnaychi, sartaroshlik kasblarida faoliyat ko'rsatishmoqda. Lo'lilar orasida aqliy mehnat bilan shug'ullanganlar jismoniy mehnat bilan shug'ullanganlarga nisbatan ozchilikni tashkil etishgan. Lo'li ishchilarining aksariyat qismi kam malaka va bilim talab etuvchi ishlarda yuk tushiruvchi, metall quyuvchi, chilangar, qorovul va hokazo kasblarda ishslashgan.

Bozor iqtisodiyotiga o'tishning dastlabki davrlarida ko'pgina korxona va tashkilotlarda ishlab chiqarishning qisqarishi natijasida ko'pgina lo'lilar ishsiz bo'lib qolishgan. Oila boqish uchun ko'pgina lo'lilar Rossiya davlatiga borib tilanchilik, folbinlik bilan mashg'ul bo'lishgan [5:93].

Lo'lilar tilanchilikni ma'lum bir kasb sifatida bilganlar. Zero, ular mazkur kasbga yoshligidan o'rgatilganlar. Asrlar davomida kasb darajasidabo'lgan tilanchilik jamiyatda ro'y berayotgan o'zgarishlarga tez moslashib borigan. Natijada, tilanchilikning zamonaviy yangi-yangi usullari vujudga kelmoqda. Ana shu vujudga kelgan hamda zamonga moslashayotgan yangi-yangi (masalan, ko'chalarda isiriq tutatish) usullarini endilikda vohaning Termiz, Sherobod, Denov shaharlari ko'chalarida tez-tez ko'rish mumkin. Surxondaryo vohasida lo'lilarning o'ziga xos tarixi, odatlari, turmush tarzi, ijtimoiy me'yordi bilan o'zlaridan boshqalar uchun hamisha jumboqlarga to'la, munozarali va qiziqarli masala bo'lib kelgan. Ayniqsa, ularning mashg'uloti, kasb-kori, daromad manbai borasidagi tadqiqotlarni amalga oshirishda etniklikning o'ziga xos jihatlari ilmiy adabiyotlarda qiyosiy tahlil asosida o'rganilgan [5:93].

O'rta Osiyo lo'lilarning folchilik bilan shug'ullanishini ko'pgina tadqiqotchilar o'z asarlarida keltirganlar. Biroq, ular lo'lilarning folbinligi bo'yicha oz bo'lsa ham tadqiq etishga harakat qilishmagan. Aksincha, Yevropa, jumladan, Rossiya lo'li (цыган)larining folchiligi bo'yicha, allaqachon ma'lum miqdorda tadqiqotlar olib borilib, natijalarining aksariyati nashr etilgan [2].

Lo'li folchi ayol, avvalo, balog'atga yetgandan so'ng o'ziga xos rasm-rusumlardan iborat «chilla» saqlab, ustozlardan ruxsat olgandan keyingina mustaqil ravishda folbinlik bilan shug'ullanadilar. Ularning ish qurollari tasbeh, turli-tuman rangli ip, doira, mayda toshlar, qarta va hokazolardan iborat. Folbin ayollarining fol ochish jarayonini bevosita kuzatishlar jarayonida shu narsa

ma'lum bo'ldiki, mazkur jarayon bir necha bosqichdan iborat:

Birinchi bosqich: tilanchilik, fol ochish maqsadida, uyma-uy yurib sodda, ishonuvchan mijozni topish. Ma'lumki, lo'lilar ko'chada katta bo'lishgan, bu ularga inson psixologiyasini o'rganishiga imkon hisoblanadi.

Ikkinci bosqich: fol ochishga bo'lg'usi mijozni ko'ndirish. Bunda ular kelajakdagi mijozga erkatalish ma'nosidagi «jon» qo'shimchasini qo'shib, «akajon (ukajon, opajon, tog'ajon) keling, bir folingizni ko'rib qo'yay», deb murojaat qilishadi. Mijozning yuzida moyillik alomatini darhol payqagan folchi uni yanada chiroli so'zlar bilan avray boshlagan. Shirin so'zlar ta'sirida mijoz folchiga rozilik bergenini o'zi ham sezmay qoladi [3].

Uchinchi bosqich: fol ochish. Yuzini qibлага qilib, mijozdan dastlab ismi so'ralsan. Shundan so'ng, fol ochishni boshlash uchun irimiga oz-moz pul berishni so'raydi. Juda ko'p holatlarda ular mijoz haqida haqiqatni aytadi. Birinchidan, ular islam diniga e'tiqod qilishgani bilan jinlarga ishonishadi, sig'inishadi. O'zi haqidagi- folchi lo'li bilishi mumkin bo'limgan haqiqatni eshitgan mijoz karaxt holga keladi. Juda ko'p takrorlanadigan lo'ligaplari uning uchun haqiqatga aylanib boraveradi. Uchta do'sting bor ekan, bittasi seni ko'ra olmas ekan, baxillik qilar ekan, degan gaplardan so'ng, mijoz dashman bo'lgan do'sti kimligini xayolan izlay boshlaydi. Ering bilan gaping to'g'ri kelmay qolgan, ko'p gap eshitasan, sendan ko'ngli sovigan, degan gap har qanday ayolni karaxt qiladi. Topgan pulingning barakasi yo'q ekan, degan gaplardan so'ng mijoz sababini izlab lo'liga murojaat qiladi. Xuddi shu narsa lo'li folchiga kerak edi.

To'rtinchi bosqich: Yuraging, iching to'la dard, qorong'ulik. Kel, dardingni olaman, degan gapni eshitgan mijoz nahot, umid bor ekan, deb lo'lining gapiga bo'ysunadi. Lo'li folchi unga igna olib chiqishni buyuradi. Yangi ignani olib chiqib, uning qo'liga beradi. Lo'li ignani 1 daqiqa ushlaydi-da, uning kaftiga solib qo'yadi, qo'lingni ochmay yuraging ustiga qo'y deb buyruq beradi.

Beshinchi bosqich: lo'li folchi duolar o'qiy boshlaydi. 5-10 daqiqa duo o'qigandan so'ng qo'lini ochishni buyuradi. Yap-yangi igna qorayib, zanglab ketgan bo'ladi. Buni ko'rib lo'lining jazavasi tutib:ana, oldim dardingni, dardingni oldim, deb gapira boshlaydi.

Oltinchi bosqich; bajargan amali uchun pul talab qila boshlaydi. Asli sodda bo'lgan va karaxt holga tushgan mijoz aytilgan pulni chiqarib bergenini sezmay qoladi. Lo'li ketib bo'lgandan keyin mijoz ba'zi bir holatlarda yarim soatlardan keyin o'ziga keladi. Mijoz yap-yangi igna olib chiqqanini yaxshi eslaydi, unga qilingan yomonliklardan ancha pul ketsa-da forig' bo'lganidan xursand bo'ladi. Ignani olib chiqqan vaqtida bir daqiqa lo'li qo'liga bergenini xayoliga ham keltirmaydi. O'sha bir daqiqada lo'li ignaga qo'lidagi moddani surtib ulgurgan bo'ladi.

Lo'li folchilarining asosiy maqsadi imkon qadar ko'proq mijozlarni «shilishdan» iboratdir. Ammo, folchilikning bunday salbiy ko'rinishiga qaramay, uning

ijobiy tomonlari ham bor. Zero, ba'zi bir vaqlarda ruhiy tushkunlik holatidagi mijoz qalbida lo'li folbin ma'lum darajada kelajakka va hayotining yaxshi tomoniga o'zgarishiga ishonch uyg'ota oladi. Xuddi ana shu sabablarga ko'ra, lo'li folchilikiga jamiyatimizda ehtiyoj bor. Folchi Bahora momo Esonovaning ta'kidlashicha, iqtisodiy qiyinchiliklar sababli og'ir ahvolga tushib qolgan kishilar, oxirgi yillarda lo'li folbinlarga ko'plab murojaat qilishmoqda. Talabning ortishi sababli folchilik bilan shug'ullanuvchi lo'lilarning soni ham ko'payib bormoqda [6:171].

Dastlabki ijtimoiy mehnat ko'nikmalarining vujudga kelishini o'zida aks ettirgan tarixiy adabiyotlarda qayd qilinishicha, lo'lilarda ijtimoiy mehnat ko'nikmalarini o'zlashtirish jarayoni ancha qiyin kechgan. Bunda lo'lilarda mehnat intizomi ko'nikmalarining yo'qligi ham sabab bo'lgan. O'rganilayotgan hududda yog'ochsoz hunarmand — lo'lilar bir qator hunarmandchilik buyumlarini tayyorlashgan bo'lib, ular, asosan, elak, g'alvir, tol tovoq, savat, bolalar o'yinchoqlari va hokazolar yasash bilan mashg'ul bo'lganlar.

Ma'lumki, asrlar davomida madaniy yaqinlashish natijasida ular atrofdagi xalqlardan turli mehnat ko'nikmalarini egallab borishgan. Xo'jalikning turli sohalari bilan shug'ullanishgan va yangi kasblarni egallahsgan. Lo'lilarning ayrim guruhlari, ya'ni, xo'jalik faoliyatida tilanchilik saqlanib qolgan qismlari hozirda ham o'z urug'idagilar bilan oila quradilar. Aralash nikohlar juda kam uchraydi va aksariyat hollarda qiz uzatmaydilar, ammo kelin olishlari mumkin. Hatto, lo'lilar va lo'lisifat guruhlar o'rtasida aralash nikohlar deyarli uchramaydi. Chunki, lo'lilarda tilanchilik mavjud bo'lsa, lo'lisifat guruhlarda tilanchilik mashg'uloti yo'q. Lo'lisifat guruh hisoblangan tovoqtaroshlar o'zbeklar, tojiklar bilan quda-andachilik munosabatlarini o'rnatishgan. Shu jihatdan, an'anaviy mashg'ulotlar ham o'tmishda har bir jamoani boshqalardan ajralib turish va o'zini anglash vositasi bo'lib xizmat qilgan. Ammo, an'ana shartli bo'lib, davr o'tishi bilan o'zgarib, yangilanib boradi [6:171].

Lo'lilarning mahalliy aholiga faol aralashuviga sabab shuki, bir necha yillardan buyon fuqarolikka ega bo'limgan lo'lilarga hukumat tomonidan pasportlar berila boshlangan va millati lo'li, o'zbek, ba'zan esa tojik deb belgilangan. Til jihatdan ham, antropologik jihatdan ham atrofdagi aholidan unchalik farqlanmagan lo'lilarda bu holat o'zbeklarga yanada singishiga omil bo'lib kelgan. 1970-yildagi aholini ro'yxatga olish ishlarida O'zbekistonidagi 30 % lo'lilar o'zlarini o'zbek yoki tojik sifatida qayd etganliklaridan ham anglash mumkinki, lo'lilar yangicha ijtimoiy-iqtisodiy turmush tarzini boshlaganlar. Bunday madaniy yaqinlashuv jarayoni natijasida lo'lilarning ayrimlari mahalliy aholidan chorvachilik mashg'ulotini o'zlashtirganlar. Chorvachilikning sohasi keng bo'lmasa-da, qishloqlarda qo'y, echki, qoramol boqish tajribalarini egallahsgan. Chorvachilik sohasi lo'lilar uchun o'ziga xos tajriba maktabi bo'lgan.

Mustaqillik yillarda lo'lilarning ko'pchiligi turli jamoa xo'jaliklarida faoliyat ko'rsatib boshlaganlar. Ammo, keyingi vaqtarda jamoa xo'jaliklarining tugatilishi, yer-mulkarning xususiyashtirib fermer dehqonga berilishi, ishlab chiqarish korxonalarining tugatilishi, natijasida lo'lilar dehqonchilik va chorvachilik sohalaridan biroz yiroqlashib, ko'pchiligi ishsiz qoldi yoki tilanchilik odatini qayta davom ettirdilar. Ularning ta'lif jarayonlariga jalb qilinganlik darajasi ham yetarli darajada deb bo'lmaydi. Hozirgi vaqtda ham ma'lumotli va ziyolilar hamon ozchilikni tashkil etishadi [6:171].

Mamlakatimizda 2000-yillardan boshlab hukumat tomonidan aholining barcha qatlamiga kichik biznes va

xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun yaratilgan sharoitlardan lo'lilar ham foydalanib, tadbirkorlik yoki kichik biznes bilan shug'ullanib, o'z xos turmush tarzini yangicha tarzda shakllantirishmoqda.

Xulosa. Hozirgi kunda lo'lilar jamiyatning faol a'zolari sifatida hunarmand, tadbirkor, o'qituvchi, ichki ishlar xodimi, san'atkor, sportchi kabi kasblarda ham faoliyat olib borishmoqda. Bu sohalarda ishlayotgan lo'lilar soni oz bo'lsa-da ortib borayotganligidan ularning atrof-tevarakka bo'lgan munosabatini ham o'zgartirmoqda. Surxondaryo vohasida lo'lilari turmush tarzi va mashg'ulotlari asrlar davomida atrofdagi xalqlarning etnomadaniyati ta'sirida o'zgarishlarga uchradi.

Adabiyotlar

1. Dala yozuvlari. Sherobod tumani, Balxiguzar qishlog'i, 2022-yil, may.
2. Dala yozuvlari. Surxondaryo viloyati, Jarqo'rg'on tumani, Oqtepa qishlog'i, 2022-yil avgust.
3. Dala yozuvlari. Surxondaryo viloyati, Sherobod tumani, Sherobod qishlog'i, 2022-yil avgust.
4. Dala yozuvlari. Surxondaryo viloyati, Termiz shahri, 2022-yil iyun.
5. Hoshimov I. Lo'lilar dunyosiga sayohat. – Toshkent: «Muharir», 2013. – B.93.
6. Назаров X. Современное этническое развитие среднеазиатских цыган (люли). // Этнические процессы у национальных групп Средней Азии и Казахстана. – Москва: «Наука», 1980. – С.171.
7. Симанчук И.В. Искусство очарования. // Архив журнала, e-mail. К содержанию номера. 2000. № 2.

REZYUME. Bugungi kunda Surxon vohasi lo'lilarining xo'jalik faoliyatini o'rganish etnografiya fani oldida turgan muhim vazifalardan hisoblanadi. Ushbu maqolada Surxondaryo viloyatida yashovchi lo'lilarning xo'jalik faoliyatni, kasb-hunarga munosabati tadqiq etilgan.

РЕЗЮМЕ. Сегодня изучение хозяйственной деятельности цыган Сурханского оазиса является одной из важных задач, стоящих перед этнографической наукой. В статье рассматривается экономическая деятельность и отношение цыган, проживающих в Сурхандарьинской области, к своим профессиям.

SUMMARY. Today, the study of the economic activities of the Gypsies of the Surkhandarya oasis is one of the important tasks facing the science of ethnography. This article examines the economic activities and attitudes of the Gypsies living in the Surkhandarya region to their professions.

САДРИДДИН АЙНИЙДИН ЖӘДИДШИЛИК-АҒАРТЫЎШЫЛЫҚ ХЫЗМЕТЛЕРИ

Қ.Сейтмуратов – педагогика илимлериңин қандидаты, доцент

Әжинияз атындағы Нәкис мәмлекеттік педагогикалық институты

Таянч сұзлар: мактаб, дарслик, жадид мактаби, ислоҳат, ўқувчилар, мустақиллик, мадраса, таълим, тарбия, маърифат.

Ключевые слова: школа, учебник, джадидская школа, реформа, ученики, независимость, медресе, образование, воспитание, просветительство

Key words: school, textbook, Jadid school, reform, students, independence, madrasa, education, upbringing, enlightenment.

Кирисиү. Жәдидшилик хәрекетиниң тырнағын жәдид усынындағы мектеплер курайтуғынлығы көпшиликтен тәрепинен мойынланған ҳақыйқат есапланады. Бул хәрекеттин тийкарғы мақсети миллиеттің өзлигин танытың, социалдық-мәдений дүзимди түptен реформалау, милlet, Ўатан гәрэрезсизлиги еди. Заманында көплеп уллы инсанларды тәрбиялап, камалға келтирген дәстүрий мектеплер соңғы дәүирлерде дүnya рајақжалынан үзилип қалған, оның үстине басып алышылыштың ақыбетинде пүткіллей жоқ болып кетиў ҳалына келген еди. Соның ушында жергилекли мектеплерди түptен реформалау, заман талапларына толық жуўап бере алатуғын тәlim-тәrbия мекемелерин шөлкемлестириў жәдид зиялыштарының ен тийкарғы үзыйпаларының бирине айланған еди.

Тийкарғы бөлім. Бухара жәдидшилик хәрекетиниң атақлы ўәкілдериниң бири, белгili ағартыушы, жазыушы, илимпаз ҳәм мәмлекеттік искер Садриддин Айний (төлкі аты – Садриддин Сайдмурадзода Айний) ҳәзирги Бухара ўәлятының Фиждуон районына қараслы Соктаре аўылында 1878-жылы 27-apрелде (кейинги жыл есабы бойынша) камбағал дийхан шанағында туўылған. Биринши мағлыұматты алты жасынан баслас өз аўылындағы басланғыш мектепте алады. Ол 12 жасқа толғанда ата-анасы тырыспай (холера) кеселлигинен қайтыс болып, Бухара қаласында жасайтуған үлкен ағасының колында тәрбияланады. Ол кейинала Мир Араб (1890-91), Олимхон (1892-93), Бадалбек (1894-96), Ҳожи Зоҳид (1896-99), Кукaldoш (1899-1900) медреселеринде тәlim алған.

С.Айнийдин дүньяқарасының қәлиплесиүи ҳәм раўажланыўына өзиниң жазып көрсетиүинше, белгили шайыр Ахмад Дониш, азербайжан жазыўшысы Хожа Марофий, басқа да жәдид ағартышылары шығармаларының тәсирі үлкен болады [1:153].

Садриддин Айний өзиниң жоқарыда аты аталған шығармасының “Илимий революцияға таярланыў” бөліминде көлтириүинше Ахмад Дониш (1827-1897) пенен жеке ушырасып, көриспесе де, оны “Наводир ул вақоє” шығармасы арқалы билетуғынлығын, бул шығарма оның дүньяқарасында үлкен өзгерислердин болыўына себепши болғанлығын, сол себепли де бул алымды устаз деп билетуғынлығын көлтиреди.

Оның дөретиўшилиги 1896-жылы биринши рет “Айний” (Көреген) деген лақап пенен басылып шыққан “Роза” атлы қосығы менен басланып, оның “Гули сурх” (Қызыл гүл) атлы биринши шығармасы 1897-жылы 19 жасында жарық көрген.

Ол бул дәўирде мийнеткеш халықтың аўыр аўхалына бирден-бир себеп оның саўатсыз, мағрыфатсыз екенлиги деп түснди. Соның ушында, ол тез арада үлкедеги жәдидшилик ағымының белсенди ағzasы болып жетилисти ҳәм жаңа усылдағы мектеп ашыў ушын көп күш сарыплайды. Ол “Жас бухаралылар” ҳәрекетиниң белсенди ағzasы сыпатында халықты саўатландырыў, талантлы жасларды сырт еллерге оқыўға жибериў, жаңа усылдағы жәдид мектеплерин ашыў бойынша үлкен хызметлер ислеген.

Садриддин Айний өзиниң “Бухара революциясы тарихы ушын материаллар” атлы шығармасында басқа материаллар катары “Мектеп мәселеси”, “Бухарада биринши жадид усылдың мектептін ашылыўы”, “Мектептиң жабылыўына таярлық ҳәм имтихан”, “Мектептиң биринши рет жабылыўы”, “Мектеп ҳаққында шешим ҳәм тартыслар”, “Рус ҳұқиметиниң Бухара реформасы, мектеп мәселесине итибар ҳәм мұнәсібет”, “1914-жылғы аўхаллар ҳәм мектеплер”, “Мектеплердин екинши мәрте жабылыўы” атамасында өз алдына бөлімлер ажыратылған [2:66]. Ол бул жерде сол дәўирде Бухарада пайда болған жаңа жәдид мектеплеринин ахұалы, оларды шөлкемлестириген инсанлар ҳаққында кең түрде мағлыўматларды көлтирген. Бул мағлыўматларды автор өз тилинен ҳәм сол ўақыя ҳәм ҳәдийселердин жанлы гүйасы сыпатында баянлап өткен. Себеби, алымның тикелей өзи Бухарада жәдид мектеплери ашылыўының шөлкемлестириўшилериниң бири болғанлығы ушында талай тарихый ўақылардың тири гүйасы болғанлығы анық ҳақықат есапланады.

Сондай ақ ол усы шығармасында: “Тәлим усылы жудә бузық, айныған еди. Биз ҳәммемиз қағыда менен методты билместен қылланар едик. Бизлерди балаларға тәлим бериўди реформалаў (қайта қурыў) машқаласы қызықтыраш еди” деп көрсетеди.

Садриддин Айний өзиниң “Бухара революциясы тарихы ушын материаллар” шығармасында былай деп жазады: 1914-жылы “Жас бухаралылар”

